

TYPE R

G.SH.RIXSIYEVA, SH.B.SODIQOVA

**O'QITUVCHI NUTQI  
MADANIYATI**

Toshkent - 2009

82.08  
D-61

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

G.SH.RIXSIYEVA SH.B.SODIQOVA

*TYP net*

**O'QITUVCHI NUTQI  
MADANIYATI**

*(MA'RUZALAR KURSI VA TOPSHIRIQLAR)*

Ushbu o'quv-uslubiy qo'llanma oliy o'quv yurtlarining bakalavriyat yo'naliشida tahsil oluvchi talabalar, akademik litsey o'quvchilari uchun tayyorlangan bo'lib, talabalarning adabiy til me'yordi doirasida nutq tuzish, mustaqil tarzda erkin fikrlash va o'z fikrlarini madaniy tarzda ifodalay olishlariga erishish maqsadiga yo'naltirilgan.

**Mas'ul muharrir:** *ff.n. Q.SH.Omonov*

**Taqrizchilar:** *ff.n. O.P.Lafasov*

*ff.n. A.Tilarov*

**Tuzuvchilar:** *ff.n. dots. G.SH.Rixsiyeva*  
*ff.n. SH.B.Sodiqova*

Ushbu o'quv-uslubiy qo'llanma Toshkent davlat sharqshunoslik institutining O'quv-uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsya etilgan. (Bayonnomma № 1. 13.11.2009)

## KIRISH

Nutq madaniyati insoniy madaniyatning asosiy ifodasiidir. Ma'naviyati yuqori bo'lgan inson barkamolligi uning omilkorligi, bilimdonligi, donishmandligida namoyon bo'ladi va unda albatta nutq madaniyati ham yuqori bo'ladi. Til odobi ko'nikmalarini, nutq madaniyati malakalarini egallash, adabiy til me'yordi amal qilish oliy ma'lumotli shaxs uchun juda muhim.

Mazkur «O'qituvchi nutqi madaniyati» kursi filologiya, tarix, falsafa, siyosatshunoslik ta'lim yo'naliشida tahsil olayotgan talabalarning adabiy til me'yordi doirasida nutq tuzish, mustaqil tarzda erkin fikrlash va o'z fikrlarini madaniy tarzda ifodalay olishlariga erishish maqsadiga yo'naltirilgan. O'quv kursi davomida notiqlik san'ati, uning tarixi, o'ziga xos jihatlari, talablari kabilalar haqida bahs yuritiladi. Madaniy nutqning mezonlari adabiy tilning turli funksional uslublari doirasida tahlil etiladi. Talabalarning turli uslublarda yozilgan matnlar ustida ishlashlari ularning nutqiy madaniyat borasidagi malakalarini oshirishga yordam beradi. Amaliy mashg'ulotlarda og'zaki va yozma nutqni to'g'ri shakkantirishga mo'ljallangan mavzular qamrab olingan. Mavzuni yetarlicha o'zlashtirish maqsadida talabalarga mustaqil ishlar uchun turli materillar tavsiya qilingan. Har bir mavzu oxirida zarur adabiyotlar ro'yxati berilgan. Shuningdek, talabalarning turli qo'shimcha manbalardan, informatsion texnologiya vositalaridan foydalangan tarzda mavzuga oid yangi ma'lumotlarni qidirib topishlari va ular ustida ishlashlariga e'tibor berilishi bugungi kun talablariga muvofiq keladi.

Fanni o'qitishdan maqsad talabalarda nutq madaniyati bo'yicha bilim, ko'nikma va malakan shakkantirishdan iborat. Chunki o'qituvchi nutqi madaniyati jamiyat madaniy taraqqiyoti, millat ma'naviy kamolotining muhim belgisi sanaladi.

“O'qituvchi nutqi madaniyati” fanining vazifalari:

- talabalarga nutq madaniyatini o'rganish tarixiga oid ma'lumotlar berish;
- madaniy nutq, unga qo'yildigan talablar haqida to'la ma'lumot berish;
- nutqning asosiy sifatlari (to'g'riliги, aniqlиги, tozалиғи мantiqилиги, ta'sirchanлигi, maqsadga muvofiqligi) to'g'risida ma'lumot berish;

- olingen nazariy bilimlar asosida adabiy nutq malakalarini shakllantirishdan iborat.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar quyidagicha:

O'qituvchi nutqi madaniyati o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- nutq madaniyati tarixi, Sharq va G'arb olimlari, adiblari, jamoat arboblarining bu boradagi qarashlari; adabiy til norma (me'yor)lari; madaniy nutqqa qo'yiladigan talablarni bilishi kerak;

- nutq uslublari va nutq madaniyati masalalari; madaniy nutq ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;

- o'z nuqtayi nazarini ilmiy asoslab berishi va bulardan amaliy masalalarni yechishda foydalana bilish malakalariga ega bo'lishi kerak.

"O'qituvchi nutq madaniyati" fani o'zbek tilshunosligining o'ziga xos amaliy sohasi ekanligi. U tilshunoslikning nazariy kurslaridan olingen bilimlarga suyangan holda to'g'ri va ta'sirchan nutq tuzish yo'llarini o'rgatishi. Nutq madaniyati – amaliy jihatdan nutqning xilma-xil muammolarini tadqiq qiluvchi fan. Tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida chiroqli nutq tuzish qonuniyatlari, sirlari, til normalari, nutq, nutqning sifatlari, nutqiy uslublar, nutqda uchrashi mumkin bo'lgan kamchilik va xatolar, nutqning talaffuziga doir muammolar yuzasidan bahs yuritadi.

## MA'RUZA MATNLARI

### 1-MA'RUZA. KIRISH. "O'QITUVCHI NUTQI MADANIYATI" KURSINING MAQSAD VA VAZIFALARI

**Darsning o'quv maqsadi:** nutq madaniyati kursini bo'lajak pedagog talabalarga o'qitilishidan ko'zlangan maqsad va bu kursning vazifalari va kutilayotgan natijalar nimalardan iborat bo'lishini tushuntirish

**Tushunchalar va tayanch iboralar:** nutq, til, til madaniyati va nutq madaniyati, notiqlik, pedagogik faolayt va notiqlik, o'qituvchi nutqi va nutq madaniyati

### REJA:

1. Nutq madaniyati sohasi, uning predmeti, muammolari.
2. "O'qituvchi nutqi madaniyati" kursining maqsad va vazifalari.
3. Nutq madaniyati sohasining boshqa lingvistik va nolingvistik sohalar bilan aloqasi.

### Asosiy o'quv materialining qisqacha bayoni:

Nutq madaniyati tilshunoslikning keng qamrovli sohalaridan biri sanaladi. Bu soha insoniyat aqliy va nutqiy salohiyatining taraqqiydarajasini ko'rsatib turgan va doimiy rivojlanishni taqozo etuvchi sohalardan biridir. Zero, til kishilarga doimo o'zaro aloqa munosabati, madaniy-ma'naviy zaruriyat, ijtimoiy taraqqiyot, kurashish qurol bo'lib xizmat qilgan. Mana shu qator vazifalarni bajaruvchi til egalarining nutq irod etish imkoniyatlari, til birliklaridan qay tarzda foydalanish chegaralarini ma'lum bir me'yorga solish ehtiyoji asosida ilmiy negizga ega bo'lgan mazkur soha vujudga kelgan. Til qanchalar rivojlangan bo'lmasin, insonlar tomonidan ma'lum me'yorlar va talablarga asoslangan nutqiy madaniyat bir xil darajada rivojlangan bo'ladi deyish doimo ham to'g'ri bo'lavermaydi. Shu sababli ham nutq madaniyati sohasi doimiy e'tibor va rivojlanish sari harakatlarni talab qiladi.

Nutq madaniyati ijtimoiy fan sifatida keng ma'nodagi til tarbiyasini va ommaviy uslubiy savodlilikni, boshqacha aytganda,

so'zlovchi va yozuvchi omma orasida til haqidagi fanning hozirgi zamon yutuqlarini tatbiq etishni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi.

Nutq madaniyati insoniy madaniyatning asosiy ifodasidir. Ma'naviyati yuqori bo'lgan inson barkamolligi uning omilkorligi, bilimdonligi, donishmandligida namoyon bo'ladi va unda albatta nutq madaniyati ham yuqori bo'ladi. Til odobi ko'nikmalarini, nutq madaniyati malakalarini egallash, adabiy til me'yorlariga amal qilish oliy ma'lumotli shaxs uchun juda muhim. Shu sababli ham mazkur o'quv kursimiz bir qator maqsad va vazifalarni o'z oldiga qo'yadi. Belgilangan vazifalar doirasida quyidagi masalalarga e'tibor qaratamiz:

- til madaniyati va nutq madaniyati tushunchalarining farqli hamda aloqador jihatlarini o'rganish;
- til taraqqiyoti va nutq madaniyatining bog'liq jihatlarini o'rganish;
- masalaga ilmiy yondashuvni shakllantirish;
- nutq madaniyati tushunchasining lingistik va nolingistik sohalar bilan aloqadorligini tahlil qilish;
- nutq madaniyati va notiqlik san'atining o'zaro bog'liq jihatlari;
- notiqlik turlari va nutq ko'rinishlari;
- adabiy tilning normativligi va nutq madaniyati;
- madaniy nutq mezonlarini o'rganish;
- nutqning ifodaliligi va nutq texnikasi;
- nutq madaniyatini egallash yo'llari;
- nutq madaniyati va stilistika masalalari;
- pedagog nutqining o'ziga xos jihatlari va boshqalar.

Nutq madaniyati lingistik soha hisoblanadi va u tilning turli sathlarini o'rganuvchi fanning barcha tarmoqlari bilan uzviy aloqadordir. U fonetika to'g'ri talaffuz me'yorlariga oid orfoepik qoidalarni bilishni, leksik imkoniyatlar doirasining kengligini, semantik, morfologik bilimlarning mukammalligini, sintaktik konstruksiyalarning me'yoriy holatlarini egallashni taqozo etadi. Umumiylar aytildigan bo'lsa, nutq madaniyati soxasi adabiy til doirasida fonetikadan tortib to uslubiyatgacha bo'lgan barcha lingistik sohalarni qamrab oladi. Ilmiy jihatdan asoslangan nutqning

o'ziga xos jihatlari mavjudligi va u qaysi fan sohasida bo'lishidan qat'i nazar ma'lum me'yorlarga bo'ysunishi kerakligi nutq madaniyatining boshqa nolingistik sohalar bilan aloqadorligini ko'rsatuvchi omillardan sanaladi. Chunki nutq madaniyati bu eng avvalo, nutqning to'g'riliqi demakdir, ya'ni yaxshi nutq noaniqlikka, uzundan uzoq jumlalarga qarshi bo'lishi, qisqalik va aniqlik uning o'chovi bo'lishi lozim. Har qanday ilmiy nutq uchun bu mezonlar asosiy talablar hisblanishini bilamiz. Keng ma'noda esa nutq madaniyati nutqiy ta'sirchanlikni, ijodiy yorqinlikni, o'tkirlik va ifodalilikni bildiradi. Bu jihatdan istalgan soha vakili og'zaki nutqining madaniy me'yorlarga asoslanishi, ma'lum normalarga bo'ysunish zarurati muhimki, bu holat har qanday notiqning madaniyati va saviyasini ko'rsatuvchi jihatlar sanaladi.

Nutq madaniyati muammolari bilan shug'ullanish birinchi marta Praga lingistik to'garagi tomonidan o'rtaga qo'yilgan edi. Keyinchalik bu masalani tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida o'rganishga rus tilshunosligida o'tgan asrning 20-30-yillarda kirishilgan. Bu masala bilan jiddiy shug'ullanishga o'zbek tilshunosligida 90-yillarda kirishildi. Bu holning o'zbek tilshunos olimlari S.Ibrohimov, K.Xonazarov O.Usmomon va boshqalar 1969 yilda Toshkentda o'zbek tili nutq madaniyatiga bag'ishlab o'tkazilgan I-respublika konferensiyasida qilgan chiqishlarida haqli ravishda ta'kidlab o'tdilar. E.Begmatov bu fikrni rivojlantirib, shunday deb yozgan edi: «Masalaning bunday qo'yilishidan o'zbek tilshunosligida nutq madaniyati muammosi umuman o'rtaga qo'yilmagan ekan, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak, nutq odobi deb yuritib kelingan qoidalarning o'ziyoq bu masalaning ko'hna tarixga ega ekanligini ko'rsatadi. Qolaversa, 20-30-yillarda til qurilish, til siyosati degan nomlar bilan yuritilgan barcha millat va xalq tillari rivojiga bevosita tatbiq etilgan ulkan tadbir va choralarining o'sha vaqtida til madaniyati, endilikda nutq madaniyati deb yuritilayotgan muammoga qanchalik aloqadorligini belgilash nihoyatda muhimdir».

Shu o'rinda til madaniyati va nutq madaniyati tushunchalariga aniqlik kiritish lozim. B.N.Golovin universitetlar uchun yozgan «Nutq madaniyati asoslari» nomli o'quv qo'llanmasida nutq madaniyatini tushunishning muhim shart-sharoitlari sifatida quyidagilarni sanab o'tadi: til va nutqni farqlash, til normasini anglash va hal qilish, til uslubi va nutqning uslublarini farqlash. Til

madaniyati tushunchasi nutq madaniyati sohasida til sistemasining o'zini, masalan, o'zbek adabiy tilining vosita va imkoniyatlarini «madaniylashtirishni» ko'zda tutadi. Demak, til madaniyati termini bilan ataluvchi tushuncha til sistemasining madaniylik darajasini, ya'ni uning qanchalik ishlanganligi, normalashtirilganini ko'rsatadi. Garchi «til madaniyati» va «nutq madaniyati» tushunchalari tilshunoslikning termini sifatida bir-biridan farqlansalar ham, aslida ularning birini ikkinchisidan ajratib bo'lmaydigan, biri ikkinchisini taqozo qiladigan tushunchalardir. Nutq madaniyati aniq ma'noda til birliklarini nutq jarayonida qo'llashning me'yori, maqsadga muvofiqligini anglatса ham, umumiy ma'noda ma'lum millatning umumtil madaniyati doirasida qaraladi. U lisoniy va nolisoniy omillarni o'z ichiga oladigan murakkab jarayon bo'lib, u mantiqshunoslik, ruhshunoslik, pedagogik, etika, estetika masalalari bilan ham bog'liq. Ammo, nutq uchun tilning birinchi o'rinda turishini hech kim inkor etmaydi. «Har bir til unda gaplashadigan millatning madaniyatini o'zida o'zida aks ettiradi» (L.V.Shcherba).

O'zbek tilshunosligida mazkur masalaga oid bir qator maqolalar, risolalar yozilgan bo'lib, ularda nutq madaniyatining ba'zi masalalari, bu soha haqidagi ilk ma'lumotlar tahlil qilingan. Bu ishlarning mualliflari S.Ibrohimov, K.Xonazarov, R.Qo'ng'uров, E.Begmatov, A.Ahmedov, M.Sodiqova, Q.Samadov, B.O'rınboyev, O'.Usmonov, X.Jalilov, S.Inomxo'jayev, Yo.Tojiev, L.Xo'jayeva va boshqalardir. Mazkur tilshunos olimlar nutq madaniyati sohasining o'rganish obyekti, ilmiy asoslari, muammoli jihatlari, til sathlariaro umumiy ahamiyat kasb etuvchi soha sifatida ahamiyatlari jihatlari, nutq madaniyati va uslubiyat masalalari tadqiqiga bag'ishlangan.

“O'qituvchi nutqi madaniyati” kursini o'qish jarayonida pedagog, ayniqsa, filolog o'qitychi siafatida nimalarga e'tibor qaratish zarurligi haqida batafsil ma'lumotlar beriladi. Shuningdek, sohaning jamiyatdagi o'rni, lingvistik va boshqa nolingvistik fanlar bialn aloqasi ham o'rganiladi.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Nutq madaniyati deganda nimani tushunasiz?
2. Nutq madaniyati va til madaniyati tushunchalarini farplay olasizmi?

3. Nutq madaniyati kursining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?

4. Nutq madaniyatining boshqa qanday sohalar bilan aloqadorligi mavjud?

#### **Mustaqil ish topshiriqlari:**

1. Nutq madaniyatining kishilar ijtimoiy hayotidagi o'rni haqida gapiring.

2. Ziyoli shaxs nutqining o'ziga xosligiga misollar izlang.

#### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1.Karimov I.A. “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch”. T, 2008.

2.Mahmudov N. “O'qituvchi nutqi madaniyati”. Toshkent, 2007.

3. Головин Б.Н. Основы культуры речи. – М.: Высшая школа, 1989.

4.Begmatov E. Nutq madaniyati tushunchasi haqida.O'zbek tili va adabiyoti. 1975. № 5.

5.R.Qo'ng'uров, E.Begmatov, Yo.Tojiev. “Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari”, T.”O'qituvchi”, 1992.

6.R.Qo'ng'uров, S. Karimov. “O'zbek tili stilistikasi va nutq madaniyati: Bibliografik ko'rsatkich” – SamDU, 1984.

## 2-MA'RUZA. NUTQ MADANIYATI VA NOTIQLIK SAN'ATI TARIXIDAN

**Darsning o'quv maqsadi:** nutq madaniyati va notiqlikning kishilik jamiyatidagi o'rni, qadimgi yunon (Afina) va Rim notiqligi, Sharq notiqligi, ularning o'ziga xosligi haqida ma'lumot berish.

**Tushunchalar va tayanch iboralar:** nutq madaniyati va notiqlik san'ati, yunon notiqligi, Rim notiqligi, Sharq notiqligi.

### REJA:

1. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati, uning ilk manbalari.
2. Qadimiy davrlardagi notiqlik san'ati va notiqlik maktablari:
  - Yunon notiqligi;
  - Rim notiqligi;
  - Sharqda notiqlik

### Asosiy o'quv materialining qisqacha bayoni:

Nutq madaniyati va notiqlik san'ati, ular haqidagi ta'limotlar tarixi juda ham uzoq davrlarga borib taqaladi. U ta'limot sifatida qadimgi Rim va Afinada shakllangan bo'lsa ham, urga qadar Misrda, Assuriyada, Vavilon va Hindiston mamlakatlari paydo bo'lganligi notiqlik san'ati tajribasidan ma'lum. Shunga ko'ra notiqlik san'ati tarixi haqida so'z yuritganda qadimgi **Yunon notiqligi**, Rim **hukmronligi davridagi notiqlik**, O'rta Osiyo notiqligi tarixi haqida bir qator ma'lumotlarning mavjudligini aytish mumkin.

Juda ko'plab ilmlar markazi hisoblangan Yunoniston notiqlik san'ati sohasida ham jahon madaniyati tarixida yorqin sahifalar yaratgan. Qadimgi yunon notiqlik san'ati o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan murakkab voqeqlikdir.

Notiqlik san'ati haqidagi ilk ma'lumotlarni Gomerding (eramizdan oldin XII asrlar o'rtasida yashagan) "Iliada" va "Odisseya" dostonlaridan olish mumkin. Gomer dostonlari ma'lumotiga qaraganda, qadimgi Yunoniston tuprog'ida eramizdan avvalgi shu davrlarda Nestor, Menelay, Odissey, Axill kabi mashhur

notiqlar bo'lgan. Bu to'rt notiq shu san'atning 4 yo'naliishiga mansub bo'lib, ular maxsus notiqlik maktablarida tahsil olganlar.

Bu san'at harbiy mutaxassislik va boshqa zarur ijtimoiy mutaxassisliklar qatori maxsus maktablarga ega bo'lgan. Shuning uchun e'tiborli oilalar farzandlarini yoshligidan shu san'at bilan quollantirishga uringanlar.

XIII-XII asrlardagi notiqlik san'ati tarixiy taraqqiyotning madaniy cho'qqisi bo'lgan, ana shu ravnaq necha asrlar osha yangidan ko'tarilgan, keyingi yuksaklikning pishib yetishiga ijobiy ta'sir etgan.

### Attika davri yoki Afina notiqligi

Eramizdan oldingi 499-449- yillar orasida, ya'ni 50 yil davomida Eron-Yunon urushi bo'ldi. Ellik yillik urushda g'olib chiqqan yunonlar davlati tez rivojiana boshlaydi va siyosiy-ijtimoiy taraqqiyotning yuqori bosqichiga ko'tariladi. Shu taraqqiyot bilan birga ilm-fan, madaniyat ham tez gurkirab o'sa boshlaydi. Bu taraqqiyot jahon tarixida hozirgacha mo'tabar sahifani egallab turibdi. Taraqqiyotning asosiy markazi Attika viloyati edi - hozirgi Afina. Bu davlat Attika yo Afina davlati, eramizdan avval X-XI asrlarda yashnagan madaniyat Afina yoki Attika madaniyati deb yuritiladi. Notiqlik san'ati jahon madaniyati tarixida yunon notiqligining Attika davri notiqligi deb yuritiladi.

Antik dunyo madaniyati va san'atining gullab-yashnashiga sabab bo'lgan asosiy omil, ijtimoiy tuzumning demokratik asosda qurilganligidir. Ilm-fan, madaniyat shu demokratiya tufayli ravnaq topdi.

Eramizdan avvalgi V asrga kelib Yunoniston hududi yirik shaharlar doirasida uyushgan kichik davlatlardan iborat edi. Bu shahar-davlatlar polislar deb atalardi. Har bir polis mustaqil davlat sifatida demokratik asosda ish ko'rardi. Afina davlati shu polislar ichida eng yirigi edi.

Afina davlatida uch organ hal qiluvchi qudratga ega bo'lgan Ulardan biri xalq majlisi, ikkinchisi Besh yuzlar Kengashi deb ataladi. Sud ham katta ijtimoiy-siyosiy mavqega ega bo'lgan. Shu uch organ yunon demokratiyasini tashkil etardi.

Besh yuzlar Kengashi, eng yirik arboblar Kengashi bo'lib, davlat ahaliyatidagi masalalar bo'yicha kiritiladigan takliflar, qonun-qoidalar loyihasini tuzib, muhokama etardi. Ana shu jarayonda Kengashning har bir a'zosi muhokama etilayotgan masala bo'yicha o'z fikrini aytar, har

tomonlama asoslab, nutq so'zлardi. So'zlovchi o'z nuqtai nazarini himoya qila olsa, loyiha qabul qilinar, asoslay olmasa qabul qilinmasdi.

Besh yuzlar Kengashi demokratiyasi erkin muhokama etish va erkin qarorga kelishdan iborat edi. Shu muhokama erkinligi, so'z erkinligi notiqlarning yetishib chiqishiga zamin yaratdi. So'z erkinligi - demokratiya, notiqlikning taraqqiyotiga sabab bo'ldi. Kengashdagi muhokama nutqlari majmuasidan notiqlik san'atining yo'nalishi yuzaga keldi. Yunon notiqligining bu ko'rinishiga Kengash notiqligi deb nom berildi. Kengash notiqligi davlat miqyosidagi masalalarni hal etishga qaratilgan bo'lib, siyosiy xarakterga ega edi. Shuning uchun bu toifaga mansub notiqlar siyosiy yoki harbiy notiqlar edi. Besh yuzlar Kengashida ham, xalq majlisida ham muhokama etilayotgan masala bo'yicha qaror, erkin ovoz berish yo'li bilan qabul qilinar va ko'p ovozga ega bo'lgan tomon g'olib kelardi. Ko'p ovoz olishning birdan-bir yo'li majlis ahlini ishontirish, ko'tarilgan masalaning mohiyatini ocha olish edi.

Attika notiqligi 2 davrga bo'linadi.

1. Eramizdan oldingi 462-yilgacha. Afina davlat tuzumi eng demokratik tusga kirkuncha.

2.. Eramizdan oldingi 462-332-yillar orasi, Afina davlati Makedoniyaga qaram bo'lib qolgan vaqtgacha.

Afina davlati jahonga notiqlik san'atining yirik namoyandalarini yetkazib berdi. Ma'rifatparvar kishi sifatida o'z atrofiga **Anaksagor**, **Suqrot**, **Gerodot**, **Sofokl**, **Fidiy** kabi buyuk siymolarni to'plagan va ularga homiylik qilgan, notiqlik san'atida barkamol **Perikl**; o'z notiqlik maktabi bilan mavjud rasmiy notiqlik uslublariga qaqshatqich zarba bergen va o'z zamondoshlarini ergashtira olgan, muzokara bobida juda kuchli bo'lgan **Kleon**; logograflik bilan shug'ullangan, o'zidan keyin o'tgan Isey, Gipenid va Demosfen kabi yirik notiqlar ijodiga katta ta'sir ko'rsatgan **Litsiy**; notiqlik, falsafa, yurisprudensiya sohasida o'z zamonasining eng yirik fan va madaniyat arboblari bo'igan Suqrot, Tisiy, Gorgiylardan ta'lim olgan va o'zi Afinada ochgan notiqlik maktabi katta shuhurat qozongan **Isokrat**; o'z nutqlariga istagancha rivoyat, afsona, naql va hikmatlarni qo'shib yuborgan, notiqlik mahorati tufayli qo'liga tushgan har qanday ishni o'zi va mijozи foydasiga hal qila olgan **Isey**; Lisiy kabi notiqlik san'atidan kasb o'rnida foydalangan, buyuk davlat arbobi sifatida juda ko'p siyosiy nutqlar so'zlagan **Demosfen**; o'zining yuksak saviyali, ta'sirchan deklamatsiyasi bilan

tinglovchilar qalbini rom etgan va shuning uchun bo'lsa kerak, "Attikalik o'nta notiq qonuniga kiritilgan **Esxin**; demokratiya tarafdoi bo'lib, Demosfen bilan birgalikda Afina davlati va yunon xalqining iqboli uchun kurash olib borgan **Giperid** shular jumlasidandir.

### Epideyktik notiqlik

Afinada notiqlik san'atiga cheksiz qiziqish natijasida, uning yangi ko'rinishlari yuzaga kela boshladi. Shulardan biri epideyktik notiqlik, ya'ni tantanali notiqlikdir.

Shu davrgacha bo'lgan notiqlik ko'rinishlari muayyan amaliy ehtiyoj uchun xizmat qilardi. Tantanali nutq ko'rinishi notiqlik san'atiga bo'lgan katta qiziqishning mahsulidir. Undan ko'zlangan maqsad, o'z notiqlik mahoratini namoyish etish, notiqlik san'atining barcha imkoniyatlarini ishga solib, tinglovchilarga estetik zavq bag'ishlashdan iborat edi.

Epideyktik nutqning mavzusi uning maqsadiga ko'ra turlicha edi. Masalan, xudolar haqidagi afsonalar, xalq qahramonlari (Axill, Gerakl va x.q.) madhiyasi, mashhur kishilar hayotiga oid (Gomer, Aristid va h.q.) sarguzashtlar kabi.

Tantanali nutq matnlari shu qadar go'zallik, badiiy, lingvistik bezaklarga boy holda tuzilardiki, ularni notiq og'zidan eshitish emas, hatto o'qib chiqishning o'zi katta zavq berardi. Iste'dodli notiq talqinida bu nutqlar badiiy o'qishga, ajoyib artistona ijrochilikka aylanib ketar va tinglovchilarga chindan ham estetik zavq bag'ishlardi. Yozma adabiyotning paydo bo'lishida notiqlik san'atining roli juda katta bo'lganidek, nafis adabiyotning go'zal, lirik shakkili yuzaga kelishida epideyktik notiqlikning ta'siri kattadir.

Sud notiqligi Yunoniston polislarida, xususan, Afina davlatida eng mavqe va e'tiborga ega bo'lgan notiqlik ko'rinishlaridan biri.

Antik demokratiya qoidalariga ko'ra, har bir erkin fuqaro xohlagan paytda, xohlagan ish bo'yicha sudga murojaat etishi va o'z manfaatini himoya qilishi mumkin edi. Sud jarayonida esa sud hay'ati chinakamiga demokratik, odilona pozitsiyada turib, da'vogar bilan himoyalanuvchi esa har biri o'z manfaatini himoya qilish uchun kurashardi. Sud hukmining qaysi tomon foydasiga hal bo'lishi ko'pincha sudlanuvchi shaxs yoki da'vogarning notiqlik san'atidagi mahoratiga bog'liq edi. Qaysi tomon o'zining mantiqiy, faktologik talqini bilan sud hay'atini

ishontira olsa, hukm o'shaning foydasiga chiqarilar edi. Antik sud jarayonining ana shu demokratik xarakteri notiqlik san'atini ommaviy ehtiyoja aylantirdi va bu san'atning rivoji uchun zamin yaratdi. Logograflar va sinegorlar degan kasb egalari paydo bo'ldi.

Aleksandr Makedonskiy hukmronligi davrida yunon xalqining fan va madaniyat sohasidagi yutuqlari sharq mamlakatlariiga yoyila boshladi. Bu madaniyat jahoning Makedonskiy hukmronligi ostidagi juda ko'p xalqlar madaniyatini birlashtirdi va yagona bir madaniyatni vujudga keltirdiki, tarixda bu davr madaniyati ellinizm davri madaniyati deb yuritiladi. Quldarlik jamiyati rivojlangani, madaniyat va san'at taraqqiyoti kabi notiqlik san'atining rivojlanishi uchun ham sharoit yaratmagani bois ellinizm davrida notiqlik san'ati o'zining siyosiy ijtimoiy mavqeini yo'qota bordi.

Keyinchalik Rim istilochilari zulmidan parokanda bo'lgan va tanazzulga yo'l tutgan yunon notiqlik san'ati qayta qaddini tiklay olmadi. Afina davlatining gullab-yashnagan davrida taraqqiy etgan yunon notiqlik san'ati jahon notiqlik san'atining cho'qqisi bo'lib qoldi.

### Rim notiqligi

Yunon madaniyati, xususan, Afina notiqlik san'ati tanazzulga yuz tutgan bir paytda Italiyada Rim notiqlik san'ati rivojlana boshladi. U antik notiqlikning yana bir muhim tarmog'i edi. Bu notiqlik lotin tilida shakllanganligi tufayli lotin notiqligi deb ham yuritiladi.

Rim imperiyasi ijtimoiy mazmuni jihatidan quldarlik tizimiga asoslangan bo'lib, unda faqat ijtimoiy tuzum taraqqiyoti emas, balki notiqlik san'ati taraqqiyotida ham Yunoniston tarixining, xususan, Afina tarixining ayrim bosqichlarining takrorlanishini ko'ramiz. Chunki Rim madaniyatiga yunon, xususan Attika madaniyati katta ta'sir o'tkazgan edi. Negaki, yunon demokratiyasining ravnaqi eramizdan oldingi V asrga to'g'ri kelsa, Rim imperiyasining rivojlanish davri eramizdan oldingi IV-III asrlarga to'g'ri keladi. Shuning uchun ham ilg'or yunon madaniyati, yunon notiqlik san'atining Rim notiqlik san'atiga ta'sir etishi tabbiy bir hol edi.

Eramizdan oldingi II asrdan boshlab Rim imperiyasining quldarlik siyosati kuchaydi. Bu o'z navbatida qullarning g'azab kosasi to'lishiga sabab bo'ldi va qullar bilan quldarlar orasida keskin kurash davri boshlandi. Ajoyib satirk Lusiliy (eramizdan oldingi 180-102 yillar)

asarlarida bu kurash yorqin aks ettirilgan. Siyosiy-ijtimoiy sharoitda so'z san'ati yana kuchga kirdi va davlat arboblari shu qudratli qorol – notiqlik san'ati vositasи bilan kurash olib bordilar. Rim imperiyasida Katon, aka-uka Grakxlar, Mark Antoniy, Sitseron kabi yirik notiqlar yetishib chiqdi.

Yirik davlat arbobi va notiqlardan biri Katon qadimgi olimlarning hisobiga ko'ra 150 taga yaqin nutq meros qoldirgan. Katonning eng sevimli usuli masalani muxtasar, ixcham bayon qilish uslubini qo'llagan. U masalani g'oyat keskin tarzda qo'ygan. Fikrlarni stilistik jihatdan g'oyat go'zal konstruksiya, ifodali va ta'sirchan shaklda bayon etishni xush ko'rgan. Har bir masala bilan tanishar ekan, uni atroficha o'rganib chiqishga e'tibor bergan. Katon notiq sifatida shu qadar kuchli mahorat egasi ediki, bu borada unga Sitseron ham tan berib yozadi: "Hammasini yanada chiroyliroq, yanada nafisroq qilib aytish mumkin, ammo hech narsani undan kuchliroq va jonliroq qilib aytish mumkin emas". His-hayajon bilan so'zlash borasida Sitseron deyarli hech kimga shu qadar yuksak baho bermaydi.

Sitseron fikricha, "har qanday notiqlarning asosiy maqsadi – tinglovchining zavqini uyg'otib, o'ziga moyil qilishdan iborat". Buning uchun esa, zarur bo'lgan notiqlik uslublarining barcha imkoniyatlaridan foydalanish mumkin. Sitseron sud notiqligi bo'yicha shuhrat qozongan. U eramizdan oldingi 63-yilda oliy lavozimga – konsullikkay saylanadi. Bu lavozimda turib u aristokratlarni himoya qiladi va demokratik guruhlarning ashaddiy dushmaniga aylanadi.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra Sitserondan quyidagi asarlar qolgan:

1. Jami 150 nutq. Shundan 58 tasi bizgacha yetib kelgan.
2. Falsafa mavzularida yozilgan 12 ta asar.
3. Notiqlik tarixi va nazariyasiga oid 7 ta risola.
4. Jami 800 ga yaqin maktub.

Sitseronning notiqlik san'atiga bag'ishlangan asarlari orasida uch risola – "Notiq haqida", "Brut yoki mashhur notiqlar haqida" va "Notiq" nomli asarlari juda katta tarixiy, nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Chunki bu risolalarda notiqlik san'ati deyarli barcha aspektlarda tahlil etilgan.

Sitseron notiqlik mahorati o'ziga xos xislatlarga ega. Masalan, u biror fikrni bayon etar ekan, nutqini shu fikr doirasi bilan cheklab qo'yмаган. Aksincha, uning nutqlarida fikr erkinligi hukmron bo'lgan va notiqlarning falsafiy, siyosiy, axloqiy qarashlari har doim uyg'un

tarzda mujassamlashgan. Sitseron notiq sifatida o‘z tinglovchisiga emotsiyal ta’sir etish masalasiga alohida e’tibor bergan. Shuning uchun ham uning nutqlarida balandparvoz so‘z, ibora va jumlalar ko‘p uchrar, nutqining umumiyo yo‘nalishi ulug‘vor uslubga moyil edi. Biroq ana shu ulug‘vorlik orasida u oddiylik, kulgi-mutoyiba, ritorik savollardan ham foydalanardi. Shu jihatdan qaraganda uning nutq uslubi qorishiq, umumiylashgan uslubga ham o‘xshab ketardi.

Sitseron matnning ravonligi, go‘zalligi, ifodaliligi va musiqiyligiga alohida ahamiyat bergan.

Sitseron o‘z nutqiga katta tayyorgarlik ko‘rgan. Shunday bir rivoyat bor, Sitseron bir kuni nutq so‘zlashga tayyorlanib ulgura olmagani uchun nima qilishini bilmay turgan ekan. Xuddi shu paytda bir qul xizmatkor kirib, majlis qoldirilganini xabar qilibdi. Sitseron quvonganidan o‘sha qulni shu zahotiyoy ozod qilib yuborgan ekan. Kishi shoir bo‘lib tug‘iladi, ammo notiq bo‘lib yetishadi, degan hikmatni olg‘a surgan Sitseron chindan ham notiqlik san’atini izlanish va mehnat tashkil etishini yaxshi tushungan va shu haqiqatga ishongan.

Sitseron nutq kompozitsiyasiga alohida e’tibor bera. Ayniqsa, nutqning kishilar ongiga ta’sir etuvchi qismi - argumentatsiya, mantiqiy isbotlarga va kishilarning hissiyotiga ta’sir etuvchi qismiga alohida e’tibor qilgan.

Sitseron nutq jarayonida uch muhim omilga alohida e’tibor berishni ta’kidlagan. Bu nutqning kirish qismi, xotimasi va repetisiyasidir.

Sitseronning hayoti, ijodi, falsafiy va adabiy qarashlari, notiqlik mahorati va bu sohadagi ta’limoti hozirgi kunda ham amaliy va nazariy ahamiyatga molikdir.

## SHARQ NOTIQLIGI

O‘rta Osiyoda hozirgi O‘zbekiston hududida notiqlik, ya’ni voizlikning vujudga kelishi va rivojlanishining tarixiy ildizlari juda qadimiyyidir. Ma’lumki, qadimi Sharqda, taxminan IX asrgacha voizlik vazifasini shoh, xalifa, sulton, qirol va harbiy sarkardalar bajarganlar. Ular asosan, juma kunlari, hayit, navro‘z va boshqa bayram marosimlarida jamoani to‘plab, davlat siyosati, tuzumi, fuqarolarning majburiyat va burchlari, jumladan, bahodirlilik, itoatkorlik, qonunlarga roya qilish, boshqa qo‘shni mamlakatlardagi vaziyat, dushmanlarning

kirdikorlari, mudofaa, o‘z ichki, tashqi siyosatlari va boshqalar haqida va’z aytganlar.

O‘rta Osiyoda ilk Uyg‘onish davrining mashhur mutafakkiri va voizlaridan bo‘lgan **Abu Nasr Forobi** (870-950) va’z aytganda to‘g‘ri so‘zlash, to‘g‘ri mantiqiy xulosalar chiqarish, mazmundor va go‘zal nutq matnini tuzishda leksikologiya, grammatika va mantiqning roliga nazariy va amaliy jihatdan katta e’tibor beradi. Forobi voizlik talablari haqida gapirib: «Voizning so‘zлари aniq bo‘lsin, fikrini va aytmoqchi bo‘lgan mulohazalarini ravon va ravshan bayon eta olsin», - deydi.

**Abu Rayhon Beruniyning** ta’kidlashicha, inson nutqi o‘z tuzilishi, materialiga ko‘ra rostni ham, yolg‘onni ham ifodalashi mumkin. Bu ko‘plab bahs-munozaralarga sabab bo‘ladi. Inson bu bahs-munozaralar jarayonida rostni yolg‘ondan ajratadigan «mezon»ni yaratadi. Inson hayotidagi zaruriy ehtiyojlar talab bilan yuzaga kelgan mantiq fanining qiyosi rostni yolg‘ondan ajratish vositasi bo‘lib qoldi. Inson nutqida shubhali o‘rinlar sezilsa, ma’lum «mezon» yordamida ular tuzatiladi. Shu bois Beruniy yaxshi nutq matnini tuzish va mazmunli nutq so‘zlash uchun grammatika, aruz va mantiq ilmini chuqr bilish lozimligini uqtiradi.

**Abu Ali ibn Sino** voizlikning amaliy va nazariy masalalarini quyidagicha talqin etadi:

- nutq qo‘pol ohangda bo‘lmasligi kerak;
- tinglovchilarning ilm darajasini hisobga olish zarur;
- va’zxonlikka ko‘p berilmaslik kerak;
- nutqni muloyim ohangda olib borish kerak;
- agar (nutqingda) biror kishini tanqid qilmoqchi bo‘lsang, boshqalarning kamchiliklari bilan qiyoslab tanqid qil;
- agar haqiqatni aytmoqchi bo‘lisang, faqat bir faktga tayanma, balki ko‘p masalalar bilan isbotla, shu narsa haqida o‘ylashga va haqiqatni izlashga ishontir;
- agar tinglovchilar sening nutqingni e’tibor bilan quloq solib tinglayotgan bo‘lsa, nutqingni davom ettir va hech nimani sir saqlama, lekin tinglovchilarning e’tiborsizligini sezsang, gapni boshqa mavzuga burganing ma’kul.

Mashhur voizlardan yana biri **Abu Homid ibn Muhammad al-Gazzoliy** «Oxiratnomma» asarida voizlarning mahorati va o‘ziga xos uslublari xususida shunday mulohaza yuritadi; «Ahli mo‘minga va’z

aytishda ehtiyot bo‘lishing lozim. Chunki voizlikda ofat ko‘p. Agar aytadigan pand-nasihatlaringga avval o‘zing amal qilib, so‘ngra xalqa izhor etsang, bu voizlik durustdir.

XI asrning ikkinchi yarmida G‘arbiy Eronda podshohlik qilgan **Kaykovus** voizlik san’atining so‘nmas yulduzlaridan biridir. Uning mashhur "Qobusnoma" asaridagi 7-bob suxandonlik, notiqlikka bag‘ishlangan.

**Mahmud Qoshg‘ariy** «Devonu lug‘otit turk», **Yusuf Xos Hojibning** «Qutadg‘u bilig» asarlarida ham nutq odobi borasida qadimiy turkiy xalqlar, jumladan, o‘zbeklar amal qilgan asosiy qonun-qoidalar, rasm-rusmlar haqidagi fikrlar yozilgan.

Buyuk shoir va mutafakkir **Alisher Navoiy** kishi fazilatlaridan biri hisoblanmish nutq madaniyatiga katta e’tibor bergan. U nutqning g‘alizligi tilga zarar yetkazishini, aksincha, yaxshi, chiroyli nutq tilning boyishiga xizmat qilishini ta’kidlaydi. Shoir nutqning tilga bevosita ta’sir qiluvchi vosita ekanligini shunday ifodalaydi: «Til muncha sharaf bilan nutqning olatidur va ham nutqdurki, agar napisand zohir bo‘lsa, tilning ofatidir».

Alisher Navoiy nutqning aniq va to‘g‘ri, ta’sirli va jozibali bo‘lishini targ‘ib qiladi. Bunday nutqqa erishish uchun so‘z ma’nosiga alohida e’tibor berish lozim. Alisher Navoiy «Mahbub-ul qulub» asarida voizlikka xos fazilat va xususiyatlarga alohida to‘xtalib, u xalqni o‘z nutqiga qarata oladigan, o‘z ortidan ergashtira oladigan donishmand kishi bo‘lishi kerakki, qalbida ma’naviy, ruhiy bo‘shliq bo‘lgan har qanday odam esa bunday voizning suhbatidan olam-olam ma’naviy zavq olib, ko‘ngli ko‘tarilsin, deydi.

Alisher Navoiy asarlarida nutq odobining talablari quyidagicha sanaladi:

- ✓ Tilni, so‘zni qadrlash, uni hurmat qilish.
- ✓ Yaxshi so‘zlay olish (nutq) san’atdir, noyob hunardir.
- ✓ Insonning odob-axloqini belgilaydigan omillardan biri uning nutqidir.
- ✓ Kishining nutq uning aqliy kamolotidan darak beradi.
- ✓ So‘zlaganda dil va tilni bir tutish zarur.
- ✓ So‘zlaganda o‘ylab, tushunib gapirish kerak.
- ✓ Kushmuomala, shirinso‘z bo‘lish.
- ✓ Chin, to‘g‘ri so‘zlash, nutqda halol bo‘lish.
- ✓ Ezgu so‘zli bo‘lish lozim.

- ✓ Tildan tuhmat uchun foydalanmaslik kerak.
- ✓ Ko‘p so‘z, ezma vaysaqi bo‘lmaslik.
- ✓ So‘zlaganda sharoitni, suhbatdoshinni hisobga olish, beo‘rin so‘z aytmaslik.
- ✓ Suhbat sirlarini saqlash, bo‘shog‘iz bo‘lmaslik.
- ✓ Gapirganda qaytariqlardan qochish kerak, chunki ular fikring ta’sirini susaytiradi.

Alisher Navoiyning muxlisi, shogirdi va do‘sti bo‘lgan mashhur voizlardan Husayn Voiz Koshifiy asosan ilmiy, siyosi, ahloqiy, tashviq va targ‘ib ruhida va’zlar aytgan. Voiz Koshifiy Husayn Boyqaro Xurosonga podshohlik qilgan yillarida davlatning bosh voizi hisoblangan. Husayn Voiz va’zlarining ta’sirchanligi, xalqchilligi, jozibadorligi haqidagi ma’lumotlar bor.

O‘rtal Osiyo notiqligining o‘ziga xos xususiyatlari shundan iborat ediki, u eng avval o‘sha davr tuzumining manfaatlariga xizmat qilar edi. Bu davrdan notiqlik san’ati ustalarining nadimlar, qissago‘ylar, masalago‘ylar, badihago‘ylar, qiroatxonlar, muammogo‘ylar, voizlar, maddohlar qasidaxonlar deb yuritilishi ham anash shundan dalolat beradi.

#### Nazorat uchun savollar:

1. Notiqlikning paydo bo‘lishi nimalar bilan bog‘liq?
2. Notiqlik nima sababdan yunonlar orasida keng rivojlangan?
3. Buyuk yunon notiqlaridan kimlarni bilasiz?
4. Rim notiqligining o‘ziga xosligi nimalarda ko‘ringan?
5. Rim notiqligining vakillari kimlar va ularning qaysi jihatlari haqidagi ma’lumotlar qolgan?
6. O‘rtal Osiyo notiqligining paydo bo‘lishi va uning o‘ziga xosliklari nimalarda ko‘rinadi?
7. Sharq olimlarining notiqlik va nutq odobi to‘g‘risidagi qanday fikrlarini bilasiz?
8. Sharq va G‘arb notiqlarining qanday o‘xhash va farqli jihatlari mavjud bo‘lgan?

#### Mustaqil ish topshiriqlari:

1. G‘arb faylasuflarining notiqlik haqidagi fikrlarini toping.
2. Sharq mutafakkirlarining notiqlik haqidagi fikrlarini toping.

3. Biror mashhur donishmandning notiqlik haqidagi fikrlarini slaydlarda ifodalang va izohlang.

### Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Mahmudov N. "O'qituvchi nutqi madaniyati". Toshkent, 2007.
2. Alimuhamedov A. Antik adabiyot tarixi. T., 1972.
3. Qo'ng'uров R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari, T.1992.
4. Rustamov A. "So'z xususida so'z" T. 2010.
5. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. 1994.
6. Апресян Г. Ораторское искусство. М. 1978.
7. Inomxo'jayev S. Notiqlik san'ati asoslari. T. 1982.
8. Mutaxassislik bo'yicha o'zbek tili (ma'ruza matnlari) JIDU, 2006

## 3-MA'RUZA. ADABIY NORMA VA NUTQ MADANIYATI

**Darsning o'quv maqsadi:** adabiy tilning normativligi va nutq madaniyat tushunchalarining o'zaro aloqadorligi haqida bilim berish.

**Tushunchalar va tayanch iboralar:** me'yor, me'yoriy ko'rinishlar, imlo, urg'u, talaffuz, tinish belgilari, leksik, grammatik, uslubiy, so'z turkumlarida me'yor, so'zlarning bog'lanish qonuniyatlari, boshqaruv, moslashuv, bitishuv, so'z tartibi, nutqiy kamchiliklar — og'zaki va yozma nutqdagi kamchiliklar, varvarizmlar, dialektizmlar, vulgarizmlar, jargonlar, uslubiy, orfografik va punktuatsion me'yorlar buzilishi.

### REJA:

1. Adabiy til – umumxalq tilining me'yorashtirilgan oliv shakli.
2. Adabiy norma va uning ilmiy ta'rif.
3. Adabiy tilning yozma, og'zaki shakllari va nutq madaniyati

Adabiy til – umuxalq tilining me'yorga solingenan, sayqallashtirilgan, muayyan qoidalar asosida qayta ishlab chiqilgan shakli. Adabiy til tusunchasida **me'yor** tushunchasi tayanch tushuncha hisoblanadi. Me'yor jamiyat a'zolari tomonidan qabul qilingan, ma'qullangan va ularga tushunarli bo'lgan til birliklarining nutq jarayonida qo'llanish holati va imkoniyatidir.

Til va nutq tizimida me'yor o'ziga xos o'ringa ega. Til material sifatida nutq jarayonida xizmat qila boshlagan lahzalardanoq uni me'yorashtirish jamiyat ehtiyojiga aylangan va me'yoriy muammolar kun tartibiga qo'yilgan.

Jamiyat taraqqiyoti bilan baravar holda til va nutqdagi me'yoriy holatlarni o'rganish, tahlil qilishga ham ehtiyoj kuchayib borgan va bu muammolarni hal qilishda xalqning maishiy, ma'naviy-ma'rifiy turmushi, ijtimoiy-falsafiy va estetik dunyoqarashi, urf-odatlari singari qator omillar e'tiborga olingan. Til hodisalarini, uning me'yoriy jihatlarini tadqiq etishda tilning milliy xususiyatlarini hisobga olmaslik ham aslo mumkin bo'limgan.

Demak, me'yor milliylik va tarixiylik mazmunini kasb etadi, necha yuz, ming yillar davomida shakllangan an'anaviylikka ega

bo'ladi. Tildan foydalanishdagi an'anaviy me'yorlarning davrlari o'tishi bilan o'zgarib, yangilanib turishi ham tarixiy jarayondir.

Anglashiladiki, til me'yorni belgilash muammolarini hal qilish har bir milliy til madaniyatini rivojlantirishning u兹viy qismiga aylanadi. Shuning uchun ham me'yor masalalarining nutq madaniyati doirasida o'rganilishi bejiz emas.

Til elementlarining ma'lum bir me'yorga keltirilishi, bir tomonidan, til mutaxassislari orqali boshqarib borilsa, ikkinchi tomonidan, tabiiy ravishda ham yuz beradi.

Til birliklarini me'yorlashtirish, hamma uchun umumiyl va tushunarli bo'lgan bir qolipa keltirish umuman tilshunoslikning vazifasi sanalsa ham, u nutq madaniyati sohasining xizmatlarini inkor etmaydi. Binobarin, me'yor muammolari hamisha ushbu sohaning tadqiqot obyekti bo'lib qolaveradi. Nutq madaniyati tilda ma'lum me'yorga keltirilgan til birliklarining nutqda qo'llanish shart-sharoitlarini, qonuniyatlarini nazariy jihatdan asoslaydi hamda bu me'yorga amal qilishni bir jihatdan nazarat ham qilib boradi. Nutqdagi yutuq va kamchiliklar tahlil qilinib, bu kamchiliklarni tugatishnichg eng ma'qul yo'llari ko'rsatib turiladi. Nutq madaniyati keng miqyosdagi til tarbiyasini va ommaviy stilistik savodxonlikni, boshqacha aytganda, so'zlovchi va yozuvchi omma orasida til haqidagi fanning hozirgi zamon yutuqlarini tatbiq etishni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi.

B.N.Golovin: «Norma — bu til birliklarini o'zaro yaxshi tushunish zarurati tufayli undan foydalanadigan xalq tomonidan yaratilgan, til qurilishining amalda bulgan xususiyatidir. Aynan mana shu zarurat til sistemasining yagonaligiga erishish yulida odamlarga biron variantni ma'qul ko'rish, boshqasidan voz kechish istagini tug'diradi. Jamiyatning ana shunday yagonalikka erishish yo'lidagi intilishi bilan birgalikda til normasi milliy adabiy tilda yuqori darajaga ko'tarilib, mustahkamlanib boradi.

Normani tadqiq etishda shu narsani qattiq yodda tutish kerakki, tilning taraqqiyot qonunlari obyektiv jarayonning ifodasi sifatida kishilarning irodasiga bog'liq bo'lgan holda amal qiladi.

Ba'zi tilshunoslar o'zbek tili doirasidagi normalarni ikkiga bo'lib o'rganishni tavsiya qiladi:

1. Tilning umumnormasi yoki umumiyl norma.
2. Tilning xususiy normalari yoki xususiy norma.

Umumiyl norma ma'lum tilning, masalan, o'zbek tilining barcha ko'rinishilarida qo'llanayotgan normalar sistemasining yig'indisidan iborat.

Xususiy norma — umumiyl normanining nutq ko'rinishlari, shakllaridagi, tilning shakllaridagi aniq ko'rinishlaridir. Yuqoridagi tahillardan kelib chiqqan holda o'zbek tilining quyidagi xususiy normalari haqida gapirish mumkin:

- 1) o'zbek adabiy tili normasi;
- 2) o'zbek lahja va shevalari normasi (dialektal norma);
- 3) o'zbek so'zlashuv nutqi normasi;
- 4) o'zbek tilining ijtimoiy tarmoqlari, ya'ni «ijtimoiy dialektlar», «ijtimoiy argolar» normasi (jargonlar, professional nutq ko'rinishlari, argoning boshqa xillariga xos normalari).

O'zbek adabiy tili normalari ilmiy asarlarda quyidagicha tasnif qilinadi: 1) leksik-semantik normalar — leksik (so'z qo'llash) normalari; 2) talaffuz (orfoepik) normalar; 3) aksentologik (so'z va formalarda urg'uning to'g'riliqi) normalar; 4) fonetik (nutq tovushlarini toi ishlatali) normalar; 5) grammatik (morphologik va sintaktik) normalar; 6) so'z yasalish normalari; 7) imloviy normalar; 8) yozuv (grafika) normalari; 9) punktuatsion normalar; 10) uslubiy normalar.

Adabiy tilda milliy tilning yashash va amal qilish qonuniyatlaridan kelib chiqib so'z tanlash imkoniyatlari uning leksik normasini belgilaydi. Umumxalq tilidan o'sib chiqqan adabiy til unda mavjud bo'lgan so'z variantlaridan lug'aviy norma sifatida eng ma'qulini — hamma uchun tushunarli bo'lgan ko'rinishini tanlab oladi, qolgan variantlar esa sheva va lajhalarda, ijtimoiy guruuhlar tilida yashayveradi. Har bir shevada o'sha sheva uchun so'z qo'llashning o'z lug'aviy normasi bo'lgani kabi adabiy til normasida ham shevalarda uchragani kabi o'ziga xosliklar bor. Masalan, she'riy asarlari tilida visol, ruxsor, siyna, falak, yanoq, qalb, hijron kabi so'zlar sheva va lajhalar va hatto jonli so'zlashuv tili uchun xos emas.

Ijtimoiy hayotda yuz berayotgan o'zgarishlar, yangiliklar eng avvalo leksikada o'z aksini topadi. Shuning uchun ham leksikaning boyib borishi tildagi boshqa unsurlarga qaraganda birmuncha faoldir. Bu hol leksik norma masalasi bilan tilshunoslikda muntazam shug'ullanish lozimligini taqozo qiladi.

O'zbek adabiy tilining lug'aviy normasi birmuncha tartibga keltirilgan bo'lib, u imlo lug'atlarida o'z ifodasini topgan. Shu tufayli yozma nutqda so'z qo'llash birmuncha turg'un holatda bo'lib, normani buzishlar unchilik sezilmaydi. Ammo og'zaki nutqda so'z qo'llash normasiga hamma vaqt ham yetarli darajada amal qilinyapti deb bo'lmaydi. Ularning ayrimlarini ko'rib o'tamiz.

Ba'zan so'zlar rus tilidan ko'r-ko'rona kalka qilingan holda qo'llaniladi. Bugungi tantananing aybdorlari, boshliq o'zlaridami, men o'zimda bo'laman kabi. Bu gaplarni bugungi tantanuning sababchilar, boshliq xonasidami (yoki kabinetidami), men o'z kabinetimda (yoki xonamda bo'laman) tarzida qo'llash maqsadga muvofiq bo'lar edi. To'g'ri, men o'z xonamda bo'laman deyishdan ko'ra nutqning sodir bo'lishidagi vaziyat, vaqtini tejash nuqtai nazaridan men o'zimdamon yoki o'zimda bo'laman deyish osonroq. Ammo gap faqat tejamlilik va tushunarli bo'lishdagina emas. Agar masalaga shunday qaraydigan bo'lsak, bu fikrni ma'lum vaziyatda hatto imo-ishora bilan ham tushuntirish mumkin. Bu yerda gap «o'z» so'ziga yuklatilgan ko'chma ma'noning to'g'ri yoki noto'g'riliqida, fikrni shunday ifodalashning tilimiz uchun normal yoki normal emasligida boryapti. Vaqt kelib u normaga aylanishi mumkindir. Ammo fikrni shu ma'noda ifodalovchi vositalar tilimizda bo'lgan holda, sun'iylikka yo'l qo'yish maqsadga muvofiq emas.

Xullas, norma tilning ijtimoiy vazifa bajarishining asosiy sharti bo'lib, unga amal qilish shu tilda so'zlashuvchi va yozuvchilar uchun majburiydir. O'zbek tilining qanchalik normaga keltirilganligi va unga qanchalik amal qilinishi umummilliy o'zbek madaniyatining taraqqiyot darajasini belgilovchi omillardan biridir. Bu esa o'z-o'zidan nutq madaniyati bilan bevosita bog'liqidir. Chunki normanining til sathlarining biror qismi bo'yicha buzilishi nutq madaniyatining holatiga slabiy ta'sir qiladi. (Har bir til sathi bo'icha adabiy til me'yoring buzilish holatlarini misollar va matnlar doirasida amaliy mashg'ulot darsida tahlil qilamiz.)

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Adabiy til va uning og'zaki va yozma shakli haqida gapiring.
2. Me'yor (norma) tushunchasiga ta'rif bering.
3. Adabiy til me'yorlarini til sathlari bo'yicha izohlang.

4. Adabiy tilning nutq madaniyati bilan qanday bog'liqligi bor?
5. Imloviy me'yor va orfografik me'yor buzilishiga misol aytинг.
6. Leksik-semantik me'yorning buzilishiga misol aytинг.
7. Grammatik me'yorning buzilishining nutq madaniyatiga ta'siri nimalarda ko'rindi?

#### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Mahmudov N. "O'qituvchi nutqi madaniyati". Toshkent, 2007.
2. Alimuhamedov A. Antik adabiyot tarixi. T., 1972.
3. Qo'ng'uров R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. T.1992.
4. Rustamov A. "So'z xususida so'z" T. 2010.
5. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. 1994.
6. Апресян Г. Ораторское искусство. М 1978.
7. Inomxo'jayev S. Notiqlik san'ati asoslari. T. 1982.
8. Mutaxassislik bo'yicha o'zbek tili (ma'ruza matnlari) JIDU, 2006
9. E.Begmatov, A.Mamatov "Adabiy norma nazariyasi", Toshkent, 1997. 1-qism.
10. E.Begmatov, A.Mamatov "Adabiy norma nazariyasi", Toshkent, 1998. 2-qism.
11. E.Begmatov, A.Mamatov "Adabiy norma nazariyasi", Toshkent, 2000. 3-qism.
12. E.Begmatov va b. "Adabiy norma va nutq madaniyati". T.: Fan, 1983.
13. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari.

## 4-MA'RUZA. NOTIQLIK TURLARI VA NUTQ KO'RINISHLARI

**Darsning o'quv maqsadi:** notiqlik turlari va ularga oid nutq ko'rinishlari haqida bilim berish, nutqning turli shakllarini tuzish va gapirish ko'nikmalarini shakllantirish.

**Tushunchalar va tayanch iboralar:** notiqlik turlari, siyosiy-ijtimoiy notiqlik; akademik notiqlik; sud notiqligi; ijtimoiy-maishiy notiqlik; diniy notiqlik, dialogik, monologik nutq.

### REJA:

1. Notiqlik turlari: siyosiy-ijtimoiy notiqlik; akademik notiqlik; sud notiqligi; ijtimoiy-maishiy notiqlik; diniy notiqlik va ularning o'ziga xos jihatlari.

2. Nutq ko'rinishlari.

3. Notiq nutqining namunaviy bo'lishini ta'minlashdagi asosiy holatlar, lingvistik va nolingvistik omillar.

### Asosiy o'quv materialining qisqacha bayoni:

Notiqlik qadimiy davrlardan beri alohida mahorat, san'at sifatida, insondagi maxsus, noyob qobiliyat tarzida talqin etib kelinadi. Shu sababli **notiqlikni** nutq madaniyatidan farqlash lozim.

Notiqlik san'atida tinglovchini, ommani o'ziga tortishga intilish maqsadi birinchi o'rinda turadi. Notiq nutqi chiroqli, jozibali bo'lishi shart. Chiroylilikka erishish uchun nutqning mazmuniga, mantiqiy kuchiga, jumlalar jimjimadorligiga e'tibor beriladi. Notiqlik nutqi har qanday monologik og'zaki nutq emas, balki tinglovchilarni ma'lum harakatga chorlovchi yoki ularda qandaydir g'oyalilar, tasavvurlar tizimini uyg'otishga qaratilgan maxsus vazifa bajaruvchi nutqdir.

Nutq madaniyati va notiqlik tushunchalari orasida o'xshashlik va farqli tomonlar mavjud:

1. Nutq madaniyati adabiy til va uning normalari bilan bog'liqidir. Notiqlik uchun bu asosiy belgi emas. So'zga chechanlik, notiqlik til materialining xarakteriga emas, nutqning ta'sirchanligi, nutqiy san'atga qarab belgilanadi.

2. Notiqlik – og'zaki nutq san'ati. Nutq madaniyati esa nutqning ham og'zaki, ham yozma shakli uchun taalluqli.

3. Nutq madaniyati sohasining maqsadi butun xalqning nutqini madaniylashtirishdir. Notiqlik asosan nutq vositasida kishilarga muayyan g'oya va maqsadlarni yetkazishni, ularni ma'lum maqsadga safarbar qilishni ko'zlaydi. Notiqlikda ma'lum maqsadga jalb qilish asosiy o'rinni tutadi.

4. Notiq nutqi ko'pchilik tinglovchiga, keng auditoriyalarga mo'jallangan bo'ladi. Nutq madaniyati oddiy nutqlar, yakka kishiga qaratilgan nutqlarni ham o'z ichiga oladi.

5. Har bir kishi til imkoniyatlarini yaxshi egallagan nutq madaniyati talablariga javob beradigan so'zamol shaxs bo'lishi mumkin. Ammo har bir shaxs ham san'atkori ma'nosidagi notiq bo'la olmasligi mumkin.

Lekin adabiy tildan foydalanuvchi har bir notiq nutq madaniyatidan xabardor bo'lishi shart.

6. Notiqlik ko'proq nutqning mazmuniga, mantiqiy asoslariga e'tibor qiladi. Nutq madaniyati esa ko'proq nutqning til qurilishiga e'tibor qiladi.

7. Notiqlik san'ati notiq uchun oldindan qanday so'zlash sxemasi va rejasini bermaydi. Nutq madaniyati sohasi esa jamiyat a'zolarini ona tili boyliklari va vositalaridan maqsadga muvofiq foydalana olish ko'nikmasini beradi. Bunday ko'nikma, aslida, har qanday san'atkori notiq uchun ham zarur.

8. Notiqlik va notiqlik san'ati haqidagi fan ancha qadimiy tarixiga ega. Nutq madaniyati esa ilmiy soha sifatida hali yangi va yoshdir.

Notiqlik turlari	Nutq ko'rinishlari
I. Siyosiy-ijtimoiy notiqlik	1. Siyosiy-ijtimoiy va siyosiy-iqtisodiy mavzudagi ma'ruzalar. 2. Anjumanlardagi hisobot ma'ruzalar. 3. Siyosiy nutq. 4. Diplomatik nutq. 5. Siyosiy axborot. 6. Harbiy vatanparvarlik nutqi. 7. Tashviqotchi nutqi. 8. Ilmiy-ommabop nutq.
II. Akademik notiqlik	1. O'quv yurtlari ma'ruzalar. 2. Ilmiy ma'ruza.

	3. Ilmiy axborot.
III. Sud notiqligi	1. 1. Qoralovchi nutqi. 2. Jamoatchi qoralovchi nutqi. 3. Oqlovchi nutqi. 4. Jamoatchi-oqlovchi nutqi. 5. O‘z-o‘zini himoya qilish nutqi.
IV. Ijtimoiy-maishiy notiqlik	1. Madhiya (yubiley, maqtov nutqlari) 2. Ta’ziya (motam) nutqi. 3. Tabrik nutqi.
V. Diniy notiqlik	1. Xutba. 2. Va’z.

## I. SIYOSIY-IJTIMOIY NOTIQLIK

**1. Siyosiy-ijtimoiy va siyosiy-iqtisodiy mavzudagi ma’ruza** shu mavzuga oid muayyan axborotlarni yoritib, tinglovchilarni ulardan xabardor etish, siyosiy-ijtimoiy va siyosiy-iqtisodiy sohalarda keng fikr yuritishga o‘rgatishdan iborat. Bunday mavzudagi ma’ruzalarda muammolar keng ko‘lamda va aniq faktlar misolida yoritiladi.

**2. Hisobot ma’ruzasi** – rahbar shaxsning biror tashkilot, jamoaning ma’lum bir muddat orasidagi faoliyatiga oid rasmiy hisoboti Bunday hisobot, ko‘zlangan reja, amalda bajarilgan ish hajmi va mazmuni, erishilgan yutuqlar, nuqsonlar va istiqbolda ko‘zlanadigan rejalarining real faktlar asosida qilinadigan tahlilidan iborat.

**3. Siyosiy nutq** – majlis, qurultoy, kengashlarda so‘zlanadigan nutq bo‘lib, bunda rahbar xodim muayyan davrga xos dolzarb siyosiy masalalarni yoritib beradi.

**4. Diplomatik nutq** – davlat ahamiyatidagi rasmiy nutq bo‘lib, xalqaro mavqega egaligi bilan xarakterlanadi. Diplomatiya har bir davlatning tashqi siyosatini amalga oshirish, uning chet mamlakatlar bilan aloqa qilish sohasidagi faoliyati bo‘lib, shu jarayonda u yoki bu davlat nomidan so‘zlanadigan barcha siyosiy, iqtisodiy, madaniy, harbiy mavzulardagi nutqlarga diplomatik nutq deyiladi.

**5. Siyosiy axborot** – biror shaxs(notiq)ning muayyan davrda ro‘y berayotgan ijtimoiy-siyosiy voqealarni sharhlab, xulosalashtirib, bayon etib berishidan iborat. Siyosiy axborotning yuqori mavqeli turi radio va televidenieda mavjud.

**6. Harbiy-vatanparvarlik nutqi** – notiqlik sanatida qadimdan mavjud bo‘lgan nutq ko‘rinishlaridan. O‘zining jangovor ruhi, siyosiy keskin xarakteri bilan ajralib turadi. Amir Temur, Petr II, A.Suvorov, M.Kutuzov kabi zabardast harbiylar va so‘z san’ati namoyandalarining notiqlik faoliyati e’tiborga sazovor.

**7. Tashviqotchi nutqi** – nutqning bu ko‘rinishi o‘zining sodda, oddiy suhabatga yaqin, har bir auditorianing sharoiti va talabiga mosligi bilan xarakterlanadi. Mavzu turlicha, suhabat o‘tkazish ham turli usullarda o‘tkazilishi mumkin.

**8. Ilmiy-ommabop nutq** o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Nutq usulini sun‘iy ravishda bir qolipa solib bo‘lmaydi.

**9. Ilmiy-ommabop nutqlar** muayyan talablarga javob berishi, ya’ni har bir ma’ruza ilmiy asosga va g‘oyaviy yo‘nalishiga ega bo‘lishi, aniq dalil va hujjatlarga asoslanishi masalani tarixiy jarayonga bog‘liq holda yoritishi, qiziqarli va ixcham bo‘lishi shart.

## II. AKADEMIK NOTIQLIK

Akademik notiqlik o‘zining akademizmi, ya’ni ilmiyligi bilan, yuksak talabchanligi bilan xarakterlanadi. Akademik notiqlikning eng muhim xususiyati ilmiy dalillarning kuchliligi va uning muayyan fan tarmog‘ining mohiyatini yechishga bag‘ishlanganligidir. Biror fanga xos bo‘tgan barcha asos va qonuniyatlar to‘la ilmiy tarzda yoritib beriladi. U bir necha ko‘rinishga ega:

**1.O‘quv yurtlari ma’ruzalari** o‘z aniqligi, ilmiy muntazamligi, faktlarga asoslanganligi va muayyan predmet qonuniyatlarini yoritib berishga bag‘ishlanganligi bilan xarakterlanadi.

**2.Ilmiy ma’ruza** – muayyan sohada qilinayotgan ishlar, ilmiy tajribalar haqidagi xulosalar yoki qilinajak ishlar haqidagi rejalar: dastlabki tug‘ilgan g‘oyalari, gipotezalar bayonidan iborat. Ilmiy ma’ruza tinglovchilar auditoriyasi tor bo‘ladi. Ilmiy ma’ruza - siyosiy sharhga monand bo‘lib, agar siyosiy sharhda e’tibor siyosiy-ijtimoiy

hodisalarga jalb etilsa, ilmiy ma'ruzada e'tibor muayyan ilmiy yutuqlarga, ixtiolar bayoni hamda xulosasiga qaratiladi.

**3. Ilmiy axborot** – akademik notiqlikning bu ko'rinishi avval qilinayotgan ishlar haqida muayyan darajadagi mutaxassis, javobgar va rahbar shaxslarni xabardor qilishni ko'zda tutadi.

### III. SUD NOTIQLIGI

Sud notiqligi notiqlik san'atining qadimgi turlaridan hisoblanadi. Qadimgi yurist (faqih)lar orasida o'z nutqi, notiqlik mahorati bilan mashhur bo'lgan so'z san'atkorlari ko'p bo'lgan. Mashhur sharq faqih notiqlaridan biri qozi al-Harbavayxiy (941y.) shu qadar katta e'tiborga ega bo'lganki, hatto yurtning amiri har kuni ertalab kelib uni ziyyarat qilib ketgan.

Sud notiqligi bir necha turga bo'linadi:

**1. Qoralovchi nutqi** o'zining muayyan shaxs yo bir guruh kishilaming aybini bo'yniga qo'yish, o'zi xizmat qilayotgan ijtimoiy tuzum manfaatini yoqlab, shu tuzum yo davlat styosatiga qarshi bo'lgan, qonun-qoidalarga rioxaga qilmagan fuqarolarni qoralash ruhi bilan xarakterlanadi.

**2. Jamoatchi qoralovchi nutqi.** Agar davlat prokurori chetdan kelgan kishi sifatida bu ishga aralashsa, jamoatchi qoralovchi jinoyat ishtirokchilari bilan yonma-yon turib, bir jamoada ishlagan bo'lishi mumkin. Jinoyatchi tarjimai holini jamoatchi-qoralovchi prokurorga qaraganda ko'proq bilishi tabiiy. Shu yo'l bilan uning jinoyatini oydinlashtirishi mumkin.

**3. Oqlovchi nutqi.** Oqlovchi chinakam begunoh odamni emas, balki aybi bo'lgan jinoyatchini oqlashga urinadi. Uning gunohidan o'tishni talab qiladi.

**4. Jamoatchi-oqlovchi nutqi.** Sudlanuvchining gunohini yengillatish, ularning to'g'ri yo'lga tushib olishlari uchun ko'maklashishga qaratilgan bo'ladi. Bu toifadagi notiqlar muayyan jamoa nomidan so'zlaydilar.

**5. O'z-o'zini himoya qilish nutqi** – sud notiqligining tarkibiy qismi. O'z-o'zini himoya qilish nutqi siyosiy mavqega ega bo'lgan jarayonlarda alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday jarayonlarda o'z-o'zini himoya qilish nutqi ko'pincha siyosiy hukm chiqarish, ijtimoiy illatlarni ro'y-rost ochib tashlash darajasiga ko'tarilib ketadi.

### IV. IJTIMOIY-MAISHIY NOTIQLIK

Kundalik turmush bilan bog'liq bo'lgan juda ko'p yig'in va marosimlar borki, ularda notiqlik sarfatining o'ziga xos ko'rinishlari namoyon bo'ladi.

**1. Madhiya yoki yubiley-maqtov nutqlari.** Bu nutqning bir ko'rinishi

muayyan shaxslar xizmatini tavsiflashga bag'ishlansa, boshqa biri obyekt madhiyasiga bag'ishlanadi.

Birinchi ko'rinishdagagi madhiyalar jumlasiga tarixiy siymolar (Navoiy, Jomiy, Shekspir, Nyuton) davlat arboblari haqidagi ta'riflar kirsa, ikkinchisiga Samarqand shahrining 2500 yillik yubileyi, yuzlab obyektlar bilan bog'liq nutqlar kiradi.

**2. Ta'ziya va motam nutqi** ham jahoning ko'pchilik xalqlariga mansub bo'lgan nutq ko'rinishlaridan biridir.

O'rta Osiyo xalqlari orasida ta'ziya nutqlarning saj' (qofiyali nasr) va she'riy shakllari mavjud. Ular o'zining yozilishi, ta'ziya bildiruvchi shaxslarning fazilatlarini yorqin ocha olishi kabi xususiyatlari tufayli shu qadar go'zal va dilkashki, hozirgi kunda ham o'rnak olsa arziydi. Ana shunday ta'ziyalarning namunasi sifatida Alisher Navoiyning o'z uestozi Abdurahmon Jomiy vafotiga bag'ishlagan marsiyasini ko'rsatish mumkin.

Ta'ziya nutqlarining juda ta'sirchan, mazmunan teran namunalarini O'rta Osiyo xalqlarining madaniy xazinasidan ko'plab keltirish mumkin.

**3. Tabrik nutqi** ham qadimdan mayjud bo'lgan an'anaviy nutq ko'rinishlaridan biri.

Tabrik nutqlari 2 xil bo'ladi:

- rasmiy-diplomatik nutq.
- kundalik-maishiy nutq.

Rasmiy-diplomatik nutq, odatda, davlat ahamiyatiga ega bo'lgan anjumanlarda davlat rahbarlari, yirik siyosiy arboblar tomonidan so'zlanadigan nutq bo'lib, mazmun jihatdan tabrik bilan birga xalqaro ahvolga, turli mamlakat va davlatlarning o'zaro munosabatlariga doir masalalarni yoritishga bag'ishlangan bo'ladi.

Kundalik-maishiy nutqlar jumlasiga ziyofatlardagi tabrik nutqlari, to'y-hashmlardagi muborakbobdlar kabi nutqlar kiradi.

## V. DINIY NOTIQLIK

Diniy notiqlik islom dinida xutba hamda va'z, xristian dinida propoved va sobordagi nutq deb aytildi.

**1.Xutba** musulmon sharqida keng tarqalgan diniy nutq ko'rinishlaridan biri bo'lib, uzoq tarixga ega. Xutba nutqi juma va hayit namozlarida, shuningdek, boshqa katta marosimlardagi nutqdir. Shu rasmiy nutqni so'zlovchi notiq-arbob xatib deb ataladi. Xutba nutqining diniy, axborot xususiyatlardan tashqari axloqiy jihatni ham mavjud. Xutba nutqlari quruq rasmiy tilda emas, hikoyat, rivoyat, sarguzasht va boshqa inobatli, ayni paytda qiziqarli, ko'rgazmali materiallar bilan asoslangan holda so'zlanadi. Bu esa xutba nutqlarining ritorik va estetik-badiiy qiymatini oshiradi.

Xutba nutqlari kompozitsion jihatdan aniqlikka egaligi bilan diqqatga sazovordir. Har bir xutba tarkiban quyidagi qismlardan iborat bo'ladi:

- hamd va na't (olloh va payg'ambar sha'niga madhiya);
- xutbayi avval (diniy pandlar);
- xutbayi soniya (axborot);
- xulosa

Xatiblar juda katta olim, notiq kishilar bo'lganlar

**2.Va'z** diniy notiqlikka mansub ikkinchi nutq ko'rinishidir. Va'zlar asosan keng ommaga mo'ljallanganiigi uchun xutbaga ko'ra ancha erkin. Badiiylik va estetik emotsiyonal tasirchanlik, tilining sodda va ravonligi bilan xutbadan farq qiladi.

Notiqlik san'ati asrlar osha katta ijtimoiy mavqega ega bo'lib, o'zining muhim yaratuvchanlik va estetik tarbiyaviy rolini o'ynab kelmoqda. Notiqlik san'ati borliq bilan hamnafas yashaydi, zamon talabiga moslashadi, yangi ko'rinishlari vujudga keladi, ba'zi ko'rinishlari chetga chiqadi. Bu san'atning ahamiyati, uning mavqeyi oshib boradi.

### Nazorat uchun savollar:

1. Siyosiy-ijtimoiy notiqlik nima?
2. Akademik notiqlik haqida gapiring.
3. Sud notiqligi haqida gapiring.
4. Ijtimoiy-maishiy notiqlik haqida gapiring.
5. Diniy notiqlik haqida gapiring.

### Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Mahmudov N. "O'qituvchi nutqi madaniyati". Toshkent, 2007.
2. Alimuhamedov A. Antik adabiyot tarixi. T., 1972.
3. Qo'ng'uров R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari, T.1992.
4. Rustamov A. "So'z xususida so'z" T. 2010.
5. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. 1994.
6. Апресян Г. Ораторское искусство. М 1978.
7. Inomxo'jayev S. Notiqlik san'ati asoslari. T. 1982.
8. Mutaxassislik bo'yicha o'zbek tili (ma'ruza matnlari) JIDU, 2006

## **5-MA'RUZA. NUTQ MADANIYATI – KO'P QIRRALI TUSHUNCHA. NUTQNING KOMMUNIKATIV SIFATLARI**

**Darsning o'quv maqsadi:** nutq madaniyati tushunchasining ko'p ma'nolari, ularning bog'liqligi haqida bilim berish.

**Tushunchalar va tayanch iboralar:** nutq madaniyati atamasi, real nutqiy hodisa, nutqiy malaka, ko'nikma, madaniy nutq, to'g'ri nutq, madaniy nutq, yaxshi nutq tushunchalari.

### **REJA:**

1. Nutq madaniyati tushunchasi, uning atama sifatidagi izohi.
2. Nutq madaniyati (NM) – real nutqiy hodisa; NM – nutqiy malaka, ko'nikma; NM – ilmiy muammoga ega soha; NM – lingistik soha.
3. Nutqning kommunikativ sifatlari (to'g'riliqi, aniqligi, sofligi, boyligi, mantiqiyligi, maqsadga muvofiqligi, jo'yaliligi).

### **Asosiy o'quv materialining qisqacha bayoni:**

Avvalgi ma'ruzalarimizda til madaniyati va nutq madaniyati tushunchalari, ularning farqli va o'zaro aloqador jihatlari haqida fikr yuritilan edi. Nutq madaniyatining aniq ma'noda til birliklarini nutq jarayonida qo'llashning me'yori, maqsadga muvofiqligini angatsa ham, umumiy ma'noda ma'lum millatning umumtil madaniyati doirasida qaraladi, deb ta'kidlagan edik.

Nutq madaniyati tushunchasini tilshunos olimlar turlicha izohlaydilar.

Bu haqdagi fikrlarimizni yanada konkretlashtirish uchun nutq madaniyati tushunchasiga tilshunos olimlarimiz tomonidan berilgan turlicha ta'rif va yondoshuvlarga to'xtalamiz.

Nutq madaniyati bir tilda to'g'ri so'zlash va yozishdir.

Nutq madaniyati fikrni sodda, aniq va tushunarli ifodalashdir.

Nutq madaniyati tilning tasviriy va obrazli vositalaridan unumli, o'z o'rniда foydalana bilishdir.

Nutq madaniyati nutqning qisqaligi, ixchamligi, aniqligi va milliyligadir.

Nutq madaniyati nutqning sodda, barcha uchun tushunarli bo'lishidir. Va hokazo.

Mazkur fikrlarga monand qarashlar **nutq odobi** tushunchasida o'z ifodasini topganini, bu haqdagi fikrlar qadimdiy yodgorliklarimizda ham bayon etilganini e'tirof etish lozim.

Shuningdek, nutq madaniyatiga yuqoridaq ta'riflarda aks etgan muammolarini o'rganish, hal etishga yo'naltirilgan alohida soha sifatida qaraladi. Tilshunos olim L.I.Skvorsov bu haqda shunday yozadi: «Nutq madaniyati bir tomonidan nutqning adabiy til normalariga mos kelish darajasini bildirsa, ikkinchi tomonidan bu tushuncha tilshunoslikning adabiy tilni yana takomillashtirish maqsadida uni normalash bilan shug'ullanuvchi sohani ham ifodalaydi».

«Nutq madaniyati» – ko'p qirrali tushuncha. Shunga ko'ra uni quyidagicha talqin qilish mumkin:

- tildagi mavjud til hodisasining nomi;
- nutq madaniyati talablariga javob beruvchi aniq nutqiy jarayonning, ya'ni aniq nutqiy ko'rinishning nomi;
- madaniy nutq va u haqida kishilar ongida mavjud bo'lgan aniq me'yoriy tasavvurlarning nomi;
- tilshunoslikning ilmiy-tadqiqot obyekti bo'lgan nutq madaniyati va uhaqidagi mavjud ilmiy tasvvurlarning, muammoning o'rni;
- nutq madaniyati muammosini tadqiq qilish bilan shug'ullanadigan tilshunoslik sohasining - nutq madaniyati sohasining nomi.

Nutq madaniyati – real nutqiy hodisa. Kishilarning muhim aloqa vositasi bo'lgan til qanchalik tariiy ahamiyatgaega bo'lsa, so'zlovchilarning bu tilga munosabati ham shunchalik qadimiydir. Chunki so'zlovchi inson doimo fikrini ta'sirchan qilib so'zlashga, suhabatdoshining e'tiborini tortishga, javob talab qilish uchun tushunarli nutq so'zlashga harakat qilishi obyektiv zarurat hisoblangan. Bunday odat va ko'nikmalar ikki muhim jihatga aloqador bo'lganligi ham shubhasiz: birinchidan, tildagi tabiiy va aslida mavjud imkoniyatlarni egallash, undan o'rinni foydalishiga intilish; ikkinchidan, so'zlovchilarning muayyan nutqiy talablar, normalarga amal qilishi. Birinchi holatda til va uning mavjud ifoda

vositalaridan foydalanish malaka va ko'nikmalari shukllana borgan bo'ls, ikkinchi holatda nutqning til bilan bog'liq bo'lmanan boshqa tomonlari ham namoyon bo'la borgan. Masalan, so'zlovchining va tinglovchining muayyan axloq-odob normalariga rioya qilishi, ta'srchan va chiroyli gaprishga intilish, tilga hurmat, o'z gapi va o'zgalar gapiga e'tiborli bo'lishi, o'rinli so'zlash, so'zlash madaniyati va tinglash madaniyati, suhbat madaniyati, munozara madaniyati, tilga e'tibor va ehtiyojkorlik va boshqalar. Mazkur talablar asosida insonlar orasida nutqiy-axloqiy qonun-qoidalar yuzaga kelgan va bu tilda ham ma'lum normalarning kelib chiqishiga sabab bo'lgan. Qadimda nutq madaniyatining kurtaklari nutq odobi tarzida namoyon bo'lgan.

Nutq madaniyati nutqiy malaka va ko'nikmalarning hosil bo'lishi, bu jarayondagi lingvistik va nolinguistik omillarning o'zaro aloqdarligi bilan vujudga keladi.

Nutq madaniyatining alohida ilmiy muammoga ega sohaligi esa mazkur hayotiy ehtiyojlar asosida uning tushuncha sifatida shakllanishidan birmuncha keyingi bosqichda vujudga kelgan. U fanning muayyan tarmog'i sifatida o'z o'rganish obyektiga ega; tilni ma'lum me'yorlarga solish, so'ngra esa adabiy tilni rivojlantirish va umuman til taraqqiyotiga hissa qo'shish kabi ulkan vazifalarni o'z zimmasiga oladi. Nutq madaniyati sohasining ilmiy muammolari tilning barcha sathlariga, tilshunoslik fanining barcha tarmoqlari bilan aloqador ekanligini ta'kidlash joiz.

Nutq madaniyati avvalo, to'g'ri, adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda so'zlashdir. Shunga ko'ra nutq haqidagi quyidagi fikrlarga e'tibor beraylik:

Agar nutqda adabiy til me'yorlariga amal qilingan bo'lsa, bunday nutq **to'g'ri nutqdir**.

Agar nutqda adabiy tilga begona bo'lgan, shu tilga o'zlashmagan so'zlar, gap qurilishlari ... o'rin olmasa, bunday nutq **sof nutqdir**.

Agar nutqda ko'p va har xil adabiy til belgilardan (ifoda vositalaridan) foydalanilgan bo'lsa, bu nutq **boy nutq** hisoblanadi.

Agar nutqni tashkil etgan so'zlar, so'z birikmalarining ma'nolari ular ifodalagan tushunchalar hajmiga to'g'ri kelsa, mos bo'lsa, bunday nutq **aniq nutqdir**.

Agar nutq tuzilishiga kirgan so'z, so'z birikmalariga xos ma'nolarning aloqasi mantiq qonunlariga, tafakkur qonunlariga zid bo'limasa, bunday nutq **mantiqli nutqdir**.

Agar nutq til vositalarining yaxshi tanlab joylashtirilishi orqali tuzilib, faqat tinglovchining ongigagina ta'sir etib qolmasdan, unga his-hayajon ham bag'ishlasa, tinglovchining diqqatini tortsa, qiziqtirolsa, bunday nutq **ifodali nutqdir**.

Agar nutq tuzilishi tinglovchi ongiga ta'sir qilish bilan birga unda borliq haqida ma'lum bir aniq tasavvur sezdirsa, o'sha narsani ko'z oldida gavdalantirsa, bu nutq **obrazli nutq** bo'ladi.

Agar nutq tinglovchi ongingin ko'p tomonlarini egallab olib, uni so'zlovchiga mahliyo, tobe qilib qo'ysa, bunday nutq **ta'sirli nutqdir**.

Agar nutq o'z o'rnda, o'z vaqtida, o'z janrida, vazifasiga ko'ra tuzilgan bo'lsa, shu sharoit yoki vaziyatlarga mos kelsa, bunday nutq **jo'yali nutqdir**.

Agar nutqning til tuzilishi tinglovchining qabul qilinishini osonlashtirishga xizmat qilsa, bunday nutq **tushunarli nutq** hisoblanadi.

Aytilgan fikrlarga bog'liq holda nutqning asosiy kommunikativ sifatlari borasida to'xtalamiz.

**Nutqning to'g'riligi** – bosh aloqaviy sifat. Nutqning to'g'ri bo'lishi, eng avvalo, uning adabiy til me'yorlariga muvofiq kelishidir. U asosan ikki normaga - urg'u va grammatic normaga qat'iy amal qilishni talab qiladi. Urg'uning to'g'ri qo'yilishi fikrning to'g'ri tushunilishi bilan bog'liq. Bu - so'z urg'usiga ham, mantiqiy urg'uga ham aloqador fikr. (Qiyos: Onasiz / bola o'ynamas. Onasiz bola / o'ynamas.) Grammatik normalarga rioya qilish deganda gap tuzish qoidalaridan to'g'ri foydalanish, o'zak va qo'shimchalar o'rtasidagi bog'lanishning tabiiyligi, ega-kesim mosligi, ikkinchi darajali bo'laklarning ularga bog'lanish qonuniyatları kabilarni e'tiborga olish kerak bo'ladi. (-ni/-ning, -ga/-da, -li/-lik va b.)

**Nutqning aniqligi** – «nutq – voqelik» va «nutq – tafakkur» munosabati asosida belgilanadi. (B.Golovin «Основы культуры речи») Aniqlik – bu so'zning o'zi ifodalayotgan voqelikka mutlaqo mos kelishidir. Bunda lug'aviy birlik (so'z, ibora)larni tanlashga alohida ahamiyat berish kerak. Uning murakkabligi so'zarning ko'p ma'noliligida aks etadi. Bu muammoni nutqning uslubiy jihatiga aloqador holda hal etish talab qilinadi.

**Nutqning tozaligi**. Bunda nutq adabiy til normasiga mos kelishi, g'ayriadabiy til unsurlaridan holi bo'lishi kerak. Bunga ta'sir qiluvchi

lisoniy unsurlar: dialektizmlar, varvarizmlar, kanselyarizmlar, parazit so'zlar, vulgarizmlar va boshqalar.

**Nutqning ta'sirchanligi.** Tinglovchi va o'quvchi e'tiborini qozonadigan xususiyatlar e'tiborga olinadi. Nutqning ta'sirchan bo'lishiga erishishda nolingistik shart-sharoitlar muhim o'rinnegallaydi. Eng avvalo, notiqning mavzu doirasida yetarli bilimga ega bo'lmasligi nutqning ta'sirchan bo'lishiga to'siq bo'ladi. Nutqning ta'sirchanligi deganda asosan, og'zaki nutq jarayoni nazarda tutiladi. Bunda tinglovchining bilim darajasi, yoshi, hattoki kayfiyatini e'tiborga olish zarur bo'ladi. Vaqtning hisobga olinishi ham kerak. So'zlovchining o'z nutqiga munosabati ham muhim. O'ta rasmiyatchilikdan qochish, hayotiy misollarga ham murojaat qilish nutqning ta'sirchan bo'lishida alohida ahamiyatga ega.

Mashhur rus notig'i V.Klyuchkovskiy: «Jamoat orasida gapirganingizda tinglovchilarining qulog'iga, aqliga murojaat qilmang, shundoq gapiringki, ular sizni tinglab turib so'zlaringizni eshitsin, narsalarni siz bilan ko'rib, sizning holatingizga kirishsin. Tinglovchilar sizning tasviringizsiz ham aqli, yuragi, fikri bilan shu narsani yaxshiroq kuzatadi. nutqda fikrni rivojlanira borib, dastlab uning tuzilishini tinglovchining aqliga yetkazish, keyin uning tasavvuriga yaqqol taqqoslarni taqdim etish kerak, nihoyat, chiroyli lirik tasvirlar bilan ehtiyyotkorona uni tinglovchining yuragiga jo qiling, o'shanda tinglovchi – asiringiz qochib ketmaydi, hattoki, siz uni erkin qo'yib yuborsangiz ham, sizning abadiy itoatkor asiringiz bo'lib qoladi».

**Nutqning boyligi va rang-barangligi.** Nutqning boyligi va rang-barangligini ta'minlashda lug'aviy birliklar (so'zlar), frazeologik birliklar (iboralar) va sintaktik vositalar (sintaktik sinonimlar, sintaktik variantlar, inversiya)dan unumli foydalanishga alohida e'tibor talab qilinadi. Shuningdek, so'z yasash imkoniyatlaridan maqsadli foydalanishga, intonatsiyaga ham e'tibor berish muhim. Bunda nutq uslublarining o'ziga xos jihatlari nazarda tutiladi. Turli vositalarga boy va eng rang-barang uslub badiiy uslubdir. Turli stilistik figuralardan foydalanish imkoniyati keng, bu esa ta'sirchanlik va mazmuniy ifodaning yuqori darajada bo'lishiga yo'naltiriladi.

**Nutqning qisqaligi.** Aytيلوچقان fikrning qisqa shaklda bayon etilishi ham muhim. Haddan ziyod uzun shaklda tuzilgan gaplar ba'zan mantiqan chalkashliklarga olib keladi. Shuningdek, o'quvchi

yoki tinglovchini toliqtirish bois zerikarli bo'ladi. Nutq qisqa bo'lsa, tegishli fikr aniq sodda shaklda ifodalansa, ko'pincha maqsadga muvofiq bo'ladi. aforizmlardan foydalanish ham nutqiy qisqalik namunasi hisoblanadi.

**Nutqning ifodaliligi (ifodali nutq)** Nutqning bu xususiyati uning ta'sirchanligi va samaradorligini oshiruvchi vositaladir. Bunda nutqqa ifodalilik va obrazlilik baxsh etuvchi turli tasviriy vositalar (o'xhatish, epitet, metonimiya, metafora, sinekdoxa, allegoriya va b.) bilan birgalikda kontekstual nutqiy vositalar (nutqning tovush tomonidan muvofiqligi, ifodali intonatsiya, nutqni dialoglashtirish va intimlashtirish; intonasjon va psixologik pauza) kabilarga e'tibor qaratiladi.

**Nutqning maqsadga muvofiqligi.** Nutqning bu xususiyati fikrning ijtimoiy asoslari bilan bog'liq. Bunda mavzu va nutqiy muvofiqlikni ta'minlash uchun axborotning mohiyatidan tashqari quyidagilar muvofiqligi muhim sanaladi: nutqiy uslub va nutqiy maqsad muvofiqligi, predmet va mazmun, adresat va auditoriya, til vositalari va adabiy norma, til vositalari va stilistik talab o'rtasidagi muvofiqlik.

Nutqning maqsadga muvofiqligi kommunikatsiyaning muhim sifat belgilariidan biri hisoblanadi.

**Nutqning mantiqiyligi.** Nutqning mantiqiyligi uning asosiy sifatlari – aniqlik va to'g'rilik bilan chambarchas bog'liq. Chunki grammatik jihatdan to'g'ri tuzilmagan nutq mantiqning buzilishiga olib keladi. Manitqiy izchillikning buzilishi esa tinglovchi va o'quvchiga aytيلوچقان fikrning to'g'ri yetib bormasligi, ba'zan umuman tushunilmasligiga olib keladi. Nutq mantiqiy bo'lishi uchun nafaqat lisoniy omillar, balki nolisoniy omilllar ham ahamiyat kasb etadi. Bunda so'zlovchi yoki yozuvchidan tilni yaxshi bilishdan tashqari keng dunyoqarashga, mulohaza yuritayotgan mavzu doirasida chuqr bilimga ega bo'lishi talab etiladi.

Nutq mantiqiyligining asosiy sharti – bu leksik-semantik va sintaktik normaga amal qilishdir. So'z tartibiga amal qilish ham muhim. Xullas, yaxlit bir tizimda, fikriy izchillikda tuzilgan nutqni mantiqiy nutq deb atash mumkin.

### Nazorat uchun savollar:

1. Nutq madaniyati tushunchasini izohlang.
2. Nutq madaniyati nima uchun real nutqiy hodisa, malaka va ko'nikma hisoblanadi?
3. Nutq madaniyati sohasining falsafa fani bilan qanday aloqadorligi mavjud deb o'ylaysiz?
4. Madaniy nutq deganda nimani tushunasiz?

### Mustaqil ish topshiriqlari

1. Nutq madaniyati tushunchasi haqida klaster tatayyorlash.
2. Nutq madaniyati va madaniy nutq tushunchalari haqida mustaqil matn tuzish

### Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Mahmudov N. "O'qituvchi nutqi madaniyati". Toshkent, 2007.
2. Alimuhamedova A. Antik adabiyot tarixi. T., 1972.
3. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari, T.1992.
4. Rustamov A. "So'z xususida so'z" T. 2010.
5. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. 1994.
6. Апресян Г. Ораторское искусство. М 1978.
7. Inomxo'jayev S. Notiqlik san'ati asoslari. T. 1982.
8. Mutaxassislik bo'yicha o'zbek tili (ma'ruza matnlari) JIDU, 2006

### MUSTAHKAMLASH UHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Nutq madaniyati deganda nimani tushunasiz?
2. Nutq madaniyati va til madaniyati tushunchalarini farqlay olasizmi?
3. Nutq madaniyati kursining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
4. Nutq madaniyatining boshqa qanday sohalar bilan aloqadorligi mavjud?
5. Nutq madaniyatining kishilar ijtimoiy hayotidagi o'rni haqida gapiring.
6. Ziyoli shaxs nutqining o'ziga xosligiga misollar izlang.
7. Notiqliknинг paydo bo'lishi nimalar bilan bog'liq?
8. Notiqlik nima sababdan yunonlar orasida keng rivojlangan?
9. Buyuk yunon notiqlaridan kimlarni bilasiz?
10. Rim notiqligining o'ziga xosligi nimalarda ko'ringan?
11. Rim notiqligining vakillari kimlar va ularning qaysi jihatlari haqida ma'lumotlar qolgan?
12. O'rta Osiyo notiqligining paydo bo'lishi va uning o'ziga xosliklari nimalarda ko'rindi?
13. Sharq olimlarining notiqlik va nutq odobi to'g'risidagi qanday fikrlarini bilasiz?
14. Sharq va G'arb notiqlarining qanday o'xshash va farqli jihatlari mavjud bo'lgan?
15. G'arb faylasuflarining notiqlik haqidagi fikrlarini toping.
16. Sharq mutafakkirlarining notiqlik haqidagi fikrlarini toping.
17. Biror mashhur donishmandning notiqlik haqidagi fikrlarini slaydlarda ifodalang. va izohlang. Nutq madaniyati tushunchasini izohlang.
18. Nutq madaniyati nima uchun real nutqiy hodisa, malaka va ko'nikma hisoblanadi?
19. Nutq madaniyati sohasining falsafa fani bilan qanday aloqadorligi mavjud deb o'ylaysiz?
20. Madaniy nutq deganda nimani tushunasiz?
21. Adabiy til va uning og'zaki va yozma shakli haqida gapiring.
22. Me'yor (norma) tushunchasiga ta'rif bering.
23. Adabiy til me'yorlarini til sathlari bo'yicha izohlang.
24. Adabiy tilning nutq madaniyati bilan qanday bog'liqligi bor?

25. Imloviy me'yor va orfografik me'yor buzilishiga misol aytинг.
26. Leksik-семантик me'yorning buzilishiga misol aytинг.
27. Grammatik me'yorning buzilishining nutq madaniyatiga ta'siri?
28. Nutq madaniyati tushunchasi haqida klaster tayyorlash.
29. Nutq madaniyati va madaniy nutq tushunchalari haqida mustaqil matn tuzish
30. Siyosiy-ijtimoiy notiqlik nima?
31. Akademik notiqlik haqida gapiring.
32. Sud notiqligi haqida gapiring.
33. Ijtimoiy-maishiy notiqlik haqida gapiring.
34. Nutqning to'g'riliги nimalarda ko'rindi?
35. Nutqning aniqligi, sofligi nima?
36. Nutqning boyligi nimalarda ko'rindi?
37. Nutqning ta'sirchanligi deganda nimalarni tushunasiz?
38. Ifodali nutq talablari nimalardan iborat?
39. O'qituvchi nutqi texnikasi nima bilan farqlanadi?
40. Ommaviy axborot vositalari tili va uslubining boshqa uslublardan farqi nimada?
41. Ta'lif jarayonida nutq madaniyatining o'rni qanday?
42. Yozma nutq madaniyati talablari qaysi uslublarda qat'iy aks etadi?

## ORALIQ NAZORAT UCHUN TEST SAVOLLARI

### **1. Til madaniyati bu-**

- A) tildagi ifoda vositalari sayqal topganligi
- B) muayyan davrning til xususiyatlari
- C) chiroylis o'zlash va savodli yozish
- D) nutq madaniyati

### **2. Ilmiy matnning eng muhim funksiyasi –**

- A) yangi bilim berish
- B) estetik zavq bag'ishlash
- C) ma'lumot berish
- D) kishi ongiga ta'sir o'tkazish

### **3. Tilning funksiyasi nimalardan iborat?**

- A) barcha javoblar to'g'ri.
- B) fikr almashuv quroli ekanligi
- C) vogelik haqida xabar berish
- D) ma'lumotlarni avloddan avlodga yetkazish

### **4. Adabiy til haqidagi qaysi hukm noto'g'ri?**

- A) adabiy til sheva va lahjalarning birliklarini ham o'z ichiga oladi

- B) adabiy til – umumxalq tilining qoidalashtirilgan, sayqallangan shakli

- C) adabiy til – me'yoriy til

- D) adabiy tilning og'zaki va yozma shakllari bor

### **5. Nutq madaniyatining past darajada bo'lishiga nima sabab bo'ladi?**

- A) til madaniyatining pastligi
- B) til tizimining murakkabligi
- C) chegaralangan leksikaning mavjudligi
- D) iboralardan keng foydalanish

### **6. Til birliklarini ajrating**

- 1) so'z; 2) gap; 3) so'z birikmasi; 4) ibora; 5) qo'shma so'z; 6) matn;

- A) 1,4,5
- B) 1,3,4,6
- C) 1,2,3,4
- D) ,3,6.

**7. Nutq birliklarini ajrating**

- 1) so‘z; 2) gap; 3) so‘z birikmasi; 4) ibora; 5) qo‘shma so‘z;  
6) matn;

- A) 2,3,6.  
B) 1,3,4,6  
C) 1,2,3  
D) 1,4,5

**8. Til birliklaridan foydalanish jarayonida nima hosil bo‘ladi?**

- A) nutq va matn  
B) nutq  
C) matn  
D) til tizimi

**9. Nutqning talaffuz me’yorlari tilshunoslikning qaysi bo‘limida o‘rganiladi?**

- A) orfoepiyada  
B) morfologiyada  
C) orfografiyada  
D) etimologiyada

**10. Nutqda turli-tuman ifoda vositalarining haddan ziyod ko‘p qo‘llanishi**

- A) nutqni bachkanalashtiradi  
B) nutqning boyligini ko‘rsatadi  
C) nutqni ta’sirchan qiladi  
B) notiklik mahoratidan dalolat beradi

**11. Madaniy nutq deb qanday nutqqa aytildi?**

- A) adabiy til me’yorlariga amal qilingan nutq  
B) boy nutq  
C) ifoda vositalaridan keng foydanilgan nutq  
D) madaniyatli kishilar nutqi

**12. Nutq madaniyatining yuqori darajasini ko‘rsatuvchi omillar qaysilar?**

- A) nutqning qisqaligi, mantiqliligi, ta’sirchanligi  
B) nutqda chegaralangan leksikadan keng foydalanish  
C) nutqning vaziyatga mos kelishi  
D) nutqning hayajonli, ko‘tarinki ruhda bo‘lishi

**13. Nutq madaniyatining notiqlik san’atidan farq nimada?**

- A) nutq madaniyati ommaviylik xususiyatiga ega, notiqlik san’ati xususiyidir

B) notiqlik san’ati umumiy, nutq madaniyati ommaviy hodisa

- C) madaniy nutq notiqlik san’atining bir qismi  
D) nutq madaniyati savodxonlik bilan bog‘liq

**14. Alisher Navoiyning «Ma’ni adosinda alfoz tilga kelur va ul alfozdin ma’ni fahm bo‘lur» degan fikri nima haqida?**

- A) shakl va mazmun haqida  
B) ma’noli nutq to‘g‘risida  
C) ma’noni tushunish ahamiyati haqida  
D) shakldosh so‘zlar ma’nosini haqida

**15. Nutq odobi haqida fikr bildirilgan asarlar to‘g‘ri berilgan qatorni toping.**

- A) Navoiy «Mahbubul qulub», Yusuf Xos Hojib «Qutadg‘u bilig»  
B) Navoiy «Mezon ul avzon», Bobur Muxtasar»  
C) Bobur «Boburnoma», Kaykovus «Qobusnom»  
D) Cho‘lpon «Adabiyot nadur?», Fitrat «Tilimiz»

**16. Reglamentatsiya adabiy me’yorning qaysi xususiyatlarini ta’minlaydi?**

- A) turg‘unlik, standartlilik, universallik  
B) qoidalashtirish, xususiylik, tushunarllik  
C) ommaviylik, standartlilik, o‘zgarmaslik  
D) doimiylik, qoliplashganlik, davriylik

**17. Reglamentatsiya qaysi shaklga xos?**

- A) adabiy tilning og‘zaki va yozma shakliga  
B) adabiy tilning og‘zaki shakliga  
C) adabiy tilning yozma shakliga  
D) faqat grammatik sathga

**18. Adabiy me’yorning xususiyatlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni toping.**

- A) konservativlik va barqarorlik  
B) davriylik va xususiylik  
C) zamonaviylik va umumiylilik  
D) barcha javoblar to‘g‘ri

**19. Me’yor (norma) tushunchalarining mohiyatan to‘g‘ri tartibini belgilang.**

- A) til normasi - adabiy norma - nutqiy norma  
B) nutqiy norma - adabiy norma - xususiy norma  
C) adabiy norma - til normasi - nutqiy norma

D) adabiy norma - nutqiy norma -talaffuz normasi

**20. Ko‘plik qo‘shimchasining hurmat ma’nosini ifodalashdagi zarur sharti**

- A) egalik qo‘shimchasining undan avval kelishi
- B) uning birlik sondagi otga qo‘shilishi
- C) kelishik qo‘shimchalaridan oldin qo‘shilishi
- D) 2-shaxs kishilik olmoshiga qo‘shilish

**21. Sharq notiqlari keltirilgan qatorni toping.**

- A) Kaykovus, Suqrot, Bahovuddin Balad
- B) Grakx, Ploton, Brut, Aristotel
- C) A.Navoiy, Kaykovus, Koshifiy
- D) A.Navoiy, Suqrot, Koshifiy

**22. G‘arb notiqlari keltirilgan qatorni toping**

- A) Aristotel, Katon, Isey
- B) Aristotel, Suqrot, H.Voiz
- C) H.Voiz, Isey, Katon
- D) Katon, Koshifiy, Isey

**23. Til, nutq bu –**

- A) til - vosita, nutq – faoliyat
- B) til – tovushlar birligi, nutq – kechim
- C) til – jarayon, nutq - vosita
- D) barcha javoblar to‘g‘ri

**24. Nutq ko‘rinishlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni toping**

- A) Monologik nutq, diniy notiqlik
- B) Monologik nutq, dialogik nutq
- C) Grammatik nutq, badiiy nutq
- D) Logografik nutq, akademik nutq

**25. Notiqlik turlari keltirilgan qatorni aniqlang**

- A) Vo‘izlik, dobirlik, xatiblik, muzakkirlik
- B) Siyosiy-ijtimoiy, akademik, sud, ijnimoiy-maishiy, diniy
- C) Siyosiy-ijtimoiy, sud, xatiblik, akademik
- D) Monologik, dialogik, diniy, ijtimoiy-maishiy

**26. Iboralardan nima maqsadda foydalaniladi?**

- A) nutqning jonli va ta’sirchan bo‘lishi uchun
- B) nutqning to‘g‘riligini ta’minlash uchun
- C) nutqning ifodali bo‘lishi uchun
- D) fikrning aniq bo‘lishi uchun

**27. Ikki xil ko‘rinishga ega bo‘lgan uslub to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni belgilang.**

- A) rasmiy uslub
- B) ilmiy uslub
- C) so‘zlashuv uslubi
- D) badiiy uslub

**28. Tilning boyligi nimalarda ko‘rinadi?**

- A) so‘z va iboralarning ko‘pligida
- B) nutqning madaniyligida
- C) savodxonlikning yuqori darajasida
- D) tasviriy vositalar mavjudligida

**29. To‘g‘ri nutq bu –**

- A) adabiy til me’yorlariga amal qilingan nutq
- B) til vositalaridan unumli foydalanilgan nutq
- C) tushunarli, ta’sirchan nutq
- D) adabiy tilga begona bo‘lgan, o‘zlashmagan so‘zlardan foydalanilmagan nutq

**30. Sof nutq bu –**

- A) adabiy tilga begona bo‘lgan, o‘zlashmagan so‘zlar, gap qurilishida o‘rin olmaygan nutq
- B) adabiy til me’yorlariga amal qilingan nutq
- C) vaziyatga mos kelgan jo‘yali nutq
- D) faqatgina o‘z qatlama o‘id so‘zlardan foydalanilgan nutq

**31. Obrazli nutq -**

- A) ma’lum tasavvurlarni hosil qiluvchi nutq
- B) ifodali, boy nutq
- C) tushunarli, ta’sirchan nutq
- D) so‘zlovchiga har tomonlama tushunarli nutq

**32. Agar nutq tinglovchi ongingin ko‘p tomonlarini egallab olib, uni so‘zlovchiga maxliyo, tobe qilib qo‘ysa, bunday nutq -**

- A) ta’sirchan nutqdir
- B) jo‘yali nutqdir
- C) mantiqli nutqdir
- D) boy nutqsir

**33. Nutqning ifodali bo‘lishidagi asosiy shartlar:**

- A) so‘zlarni to‘g‘ri tanlash, his-hayajon bag‘ishlash, diqqatn tortish, intonatsion va psixologik pauza
- B) his-hayajon, ko‘tarinki kayfiyat bag‘ishlash, psixologik pauza

C) mantiqiy urg'uga e'tibor berish, ta'sirli so'zlash, boy tasavvurga ega bo'lish

D) tinglovchi dunyoqarashi, savyasini e'tiborga olish, adabiy tilni yaxshi bilish.

**34. Nutqning ta'sirchan bo'lishiga yordam beruvchi vositalar qaysilar?**

A) ibora, tasviriy vositalari, maqollar

B) so'zlar, so'z birikmalar, pauza

C) hikmatli so'zlar, modal so'zlar, so'z urg'usi

D) she'riy parchalar, sintagma

**35. Qadimda rimliklar va gresiyaliklar stilga nisbatan qanday munosabatga bo'lishgan?**

A) kishilarni ishontirish vositasi deb hisoblashgan

B) nutqni bezash vositasi deb qarashgan

C) o'z ichki xususiyatlari ega alohida soha deb hisoblashgan

D) nutqning funksional uslubi deb baholashgan

**36. Qadimda hindistonliklar stilga nisbatan qanday munosabatga bo'lishgan?**

A) nutqni bezash vositasi deb qarashgan

B) kishilarni ishontirish vositasi deb hisoblashgan

C) o'z ichki xususiyatlari ega alohida soha deb hisoblashgan

D) nutqning funksional uslubi deb baholashgan

**37. Nutq uslubi va nutq madaniyati haqidagi qaysi hukm to'g'ri?**

A) nutq uslubi xususiy, nutq madaniyati umumiyl hodisa

B) nutq madaniyati xususiy, nutq uslubi umumiyl hodisa

C) nutq uslubi yozma, nutq madaniyati og'zaki nutqqa xos

D) ular orasida jiddiy farq yo'q

**38. Nutqning vazifaviy uslublaridan qaysi birlari nutq madaniyati bilan aloqador?**

A) har bir uslub o'ziga xos tarzda nutq madaniyati bilan aloqador

B) ularning aloqadorligi yo'q

C) so'zlashuv uslubi va badiiy uslub

D) ommabop va rasmiy uslubgina nutq madaniyati bilan aloqador.

**39. Nutq madaniyatining aniqlik, qisqalik, tushunarilik xususiyatlari ko'proq qaysi uslubda namoyon bo'ladi?**

A) rasmiy uslub

B) ilmiy uslub

C) badiiy uslub

D) ommabop uslub

**40. Badiiy usulbni vujudga keltiruvchi muhim vositalar qaysilar?**

A) tasvir vositalari, iboralar, sinonimlar

B) iboralar, istioralar, mantiqiy urg'u

C) qoliplashgan so'z birikmalar, ko'chma ma'noli so'zlar

D) ko'p ma'noli so'zlar, ellipsis

**41. Qanday so'zlar nutqning qisqaliganini ta'minlovchi ishora so'zlar hisoblanadi?**

A) olmoshlar

B) sinonimlar

C) qisqartmalar

D) iboralar

**42. Matnda tovush orttirish, bo'g'lnarni qisqartirish yoki inversiya hodisalari qaysi uslubga xos?**

A) badiiy uslub

B) so'zlashuv uslubi

C) rasmiy uslub

D) ilmiy uslub

**43. Grammatika va grammatik stilistika haqidagi kaysi hukm to'g'ri?**

A) grammatik stilistika birlıklarning ekspressiv ma'nolari va vazifalarini o'rganadi, grammatika til qurilishini tekshiradi

B) grammatika so'zlarning leksik va grammatik ma'nolarini o'rganadi, grammatik stilistika uslubiyatning bir turi

C) grammatika so'zlar, so'z shakllari, ularning morfologik xususiyatlari, sintaktik vazifalarini o'rganadi, grammatik stilistika nutq uslublarini tadqiq etadi

D) grammatik stilistika qo'shimchalarning vazifaviy turlarini o'rganadi, grammatika gap tuzilishini o'rganadi

**44. Boshlarim og'ribketdi, tillaridan bol tomadi gaplaridagi ko'plik qo'shimchasi qanday ma'no ifodalaydi?**

A) uslubiy ma'no

B) leksik ma'no

C) asosiy (bosh) ma'no

D) ko'chma ma'no

**45.Qaysi birliklarni qo'llashdagi xatolik nutqning mantiqan buzilishga ta'sir qiladi?**

- A) paronimlar
- B) omonimlar
- C) ko'p ma'noli so'z
- D) antonimlar

**46. Badiiy matnda -lar qo'shimchasi qanday ma'nolarni ifodalashi mumkin?**

- A) barcha javoblar to'g'ri.
- B) ko'plik, jamlash, taxmin
- C) hurmat, kuchaytirish, ko'plik
- D) mabolag'a, chama, kinoya

**47.Qanday birliklar nutqning boy va ta'sirchan bo'lishini ta'minla**

- A) sinonimlar
- B) omonimlar
- C) paronimlar
- D) undov sozlar

**48.Yozma nutq madaniyatining yuqori darajasiga erishish uchun qaysi qoidalarni to'liq va mukammal bilish zarur?**

- A) orfografik va grammatic qoidalarni
- B) orfoepik va orfografik qoidalarni
- C) uslubiy va fonetik koidalarni
- D) fonetik va grammatic qoidalarni

**49. So'roq gaplardan qaysi uslubda deyarli foydalilmaydi?**

- A) rasmiy uslubda
- B) badiiy uslubda
- C) ilmiy uslubda
- D) ommabop uslubda

**50. She'riy matnda -gin (-gil), -mi (-mu), -ar (-ur) qo'shimchalarining turli variantlarda qo'llanilishi qaysi yozuv qoidasiga muvofiq yoziladi?**

- A) tarixiy-an'anaviy prinsip
- B) fonetik prinsip
- C) morfologik prinsip
- D) shakliy yozuv qidasisi

**51. Atov gaplardan qaysi uslubda foydalilanildi?**

- A) badiiy uslub
- B) so'zlashuv uslub
- C) rasmiy uslub
- D) ilmiy uslub

**52. So'zlarining lug'aviy ma'nosini farqlashga xizmat qiluvchi vositalarqaysilar?**

- A) leksik urg'u, tutuq belgisining ishlatalishi
- B) inversiya, mantiqiy urg'u
- C) sinonimiya, so'z birikmasi tarkibi
- D) gapda so'z tartibi

**53. Badiiy tasvirda portret yaratish uchun kaysi vositalar muhim sanaladi?**

- A) sifatning turli ma'oviy guruhlariga oid so'zlar
- B) ot, olmosh va iboralar
- C) so'z birikmalari va iboralar
- D) mubolag'a, metafora va tazod

**54. Nutqning boyligini ta'minlovchi sinonimiya hodisasi qaysi birliklar doirasida kuzatiladi?**

- A) so'zlar, iboralar do'shimchalar
- B) so'z birikmalari, nutq tovushlari
- C) so'z-gaplar, qo'shimchalar
- D) so'z qo'shilmalari va iboralar

**55. Nutqning maqsadga muvofiqligi nimalarga bog'liq?**

- A) fikrning ijtimoiy asoslari, adresat va auditoriya
- B) intonasion va psixologik pauza
- C) ifodali nutq, nutqiy vaziyat
- D) mantiqiy urg'u.

## **YAKUNIY NAZORAT UCHUN SAVOL VARIANTLARI**

### **1 – VARIANT**

1. Nutq madaniyati va uslubiyatni sharhlang.
2. Sharq notiqlari haqida ma'lumot bering.
3. Nutqning aniqligi deganda nima tushuniladi?

### **2 – VARIANT**

1. Nutqning vazifaviy uslublari haqida ma'lumot bering.
2. G'arb va sharq notiqlik maktablarini farqlang.
3. Nutqning kommunikativ sifatlari haqida nimalar bilasiz?

### **3 – VARIANT**

1. Adabiy me'yor nima?
2. A.Navoyning notiqlik mahorati haqida ma'lumot bering.
3. Nutqning sofligi va to'g'riligi deganda nima tushuniladi?

### **4 – VARIANT**

1. Madaniy nutqning asosiy sifatlari
2. Kaykovus va uning "Qobusnomasi" asarida nutq odobi haqida
3. Ommaviy axborot vositalari tili va uslubining o'ziga xosligini sharhlang.

### **5 – VARIANT**

1. G'arb notiqlik maktablari haqida ma'lumot bering.
2. Nutq madaniyati va notiqlik tushunchalarini sharhlang.
3. O'qituvchi nutq ifodaliligi va texnikasi deganda nimalar tushuniladi?

### **6 – VARIANT**

1. Ta'lim jarayoni va nutq madaniyati.
2. Nutq madaniyati – ko'p qirrali tushuncha.
3. Notiqlik turlari va ko'rinishlari.

### **7 – VARIANT**

1. Nutq madaniyati va boshqa fanlarning aloqadorligi
2. Nutqning sofligi va boyligi
3. Ommaviy chiqishlarda nutq madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari

### **8 – VARIANT**

1. Notiqlik san'ati va nutq madaniyatining aloqadorligi.
2. Nutqning ta'sirchanligi va ifodaliligi
3. Tantanali nutq va uning ko'rinishlari

### **9 – VARIANT**

1. Notiqlik san'ati va nutq madaniyati tushunchalarining farqli jihatlari.
2. Nutqning boyligi, sofligi va aniqligi
3. Nutq madaniyatini egallash yo'llari

### **10 - VARIANT**

1. Notiqliknинг muhim shartlari nimalardan iborat?
2. Nutqning mantiqiyligi va maqsadga muvofiqligi
3. O'rta Osiyo notiqligi haqida yozing.

### **11 - VARIANT**

1. Akademik notiqlik va uning nutq ko'rinishlari.
2. Nutq madaniyatining falsafa, mantiq fanlari bilan aloqadorligi.
3. Madaniy nutq mezonlari.

### **12 - VARIANT**

1. Nutq madaniyatining pedagogika va psixologiya bilan aloqadorligi.
2. Notiqliknинг muhim shartlari.
3. Yozma nutq shakllari va ularning nutq madaniyati bilan aloqadorligi

	<b>TAYANCH TUSHUNCHALAR</b>	
<b>ADABIY TIL</b>	Umumxalq tilining til me'yorlari doirasida sayqallangan shakli.	
<b>BADIYLIK</b>	Adabiyot va san'at asarlarining ijtimoiy-estetik ahamiyatini belgilovchi sifati va darajasi.	
<b>VA'Z</b>	Notiqlar tomonidan o'qiladigan nutq. Diniy aqidalarni targ'ib qilishga qaratilgan nutq. Diniy mavzuda va'z qiluvchi, nitq irod etuvchi notiq.	
<b>VOIZ</b>	Adabiy tilda boshqa tillardan olingan so'zlarni nutqda noo'rin va ko'p qo'llash. Ikki kishi orasidagi nutq.Og'zaki va yozma shakllarga ega	
<b>VULGARIZM</b>	Nutqda tovushning baland va past ohangi bilan belgilanadigan so'zlashish tarzi, so'zni talaffuz etish tarsi. So'zlovchining nutq mavzuiga munosabatini, his-tuyg'usini ifodalovchi talaffuz uslubi.	
<b>DIALOG</b>	Avvaldan tayyorgarliksiz biror munosabat tufayli ma'lum mavzuda hozirjavoblik bilan nutq so'zlash.	
<b>INTONATSIYA</b>	Fikr almashuvga oid kommunikatsiya ya'ni aloqaning sifati. Nutqning sifati.	
<b>IMPROVIZATSIYA</b>	Qadimgi g'arb sud notiqligida nutq yozib beruvchi shaxs	
<b>KOMMUNIKATIV SIFAT</b>	Jamiyatning ishlab chiqarish va ma'naviy hayotida qo'fga kiritgan yutuqlar majmui. Nutq jarayonida birir so'zning ma'nosiga alohida diqqat jalb etish maqsadida uni boshqalardan ajratib, kuchliroq talaffuz etib ko'rsatish..	
<b>LOGOGRAF</b>	Tarixchi notiq	
<b>MADANIYAT</b>	Bir kishining nitqi	
<b>MANTIQIY URG'U</b>	Fikrni so'z orqali ifodalash. So'zlashuv jarayoni.	
<b>MUZAKKIR</b>	Og'zaki va yozma tarzda fikr bildirishning	
	<b>MONOLOG</b>	adabiy til me'yorlariga mos tarzda ifodalaniishi.
	<b>NUTQ</b>	Tilshunoslik faniga oid soha.
	<b>NUTQ MADANIYATI</b>	Nutq so'zlovchi; gapga chechan, usta so'zamol.
	<b>NOTIQ</b>	Bir-biriga ulangan, uyg'unlashgan yoqimli tovushlr tizimi. Nutqda ma'noga qarab ovozning ko'tarilishi va pasayishi.
	<b>OHANG</b>	Notiqlik nazariysi.
	<b>RITORIKA</b>	Yuksak mahorat, ustalik.
	<b>SAN'AT</b>	Qadimgi g'arb sud notiqligida nutq tayyorlab beruvchi shaxs (hozirgi advokat)
	<b>SINEGOR</b>	Nutq uslublari haqidagi fan.
	<b>USLUBSHUNOSLIK</b>	So'z tarkibidagi tovushlardan birining yoki gap tarkibidagi bo'laklardan birining boshqalariga nisbatan kuchliroq aytilishi hodisasi.
	<b>URG'U</b>	Masjidda xutba o'qiydigan, va'z aytadigan dmla imom,voiz.
	<b>XATIB</b>	Biror bir narsaning mazmunini ochib berish, tushuntirish izohlash.
	<b>SHARH</b>	Umumxalq tilining ma'lum hududga xos tarmog'i, mahalliy til, dialekt.
	<b>SHEVA</b>	Go'zallik, nafis san'at, badiiy ijodiyot va ularning shakllari haqidagi ta'limot.
	<b>ESTETIKA</b>	

## ADBIYOTLAR RO'YXATI


### **Asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar:**

1. Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008.
2. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari.- T.: O'qituvchi, 1992.
3. Rasulov R., Mo'yдинов Q. Nutq madaniyati . – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti , 2004.
4. Rasulov R., Husanov N., Mo'yдинов Q. Nutq mahorati. - Toshkent Moliya instituti, 2006.


### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: Sharq 1997.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.– T.: "Sharq" 2008.
3. Rasulov R., Husanov N., Mo'yдинов Q. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. TDPU. T.: 2007.
4. Rustamov A. So'z xususida so'z, T, 2010
5. Siddiq Mo'min. So'zlashish san'ati.– Farg'on, 1997.
6. Mahmudov N. Ma'rifat manzillari.– T.: Ma'naviyat, 1999.
7. E.Begmatov, A.Mamatov "Adabiy norma nazariyasi", Toshkent, 1997. 1-qism.
8. E.Begmatov, A.Mamatov "Adabiy norma nazariyasi", Toshkent, 1998. 2-qism.
9. E.Begmatov, A.Mamatov "Adabiy norma nazariyasi", Toshkent, 2000. 3-qism.
10. E.Begmatov va b. "Adabiy norma va nutq madaniyati". T.: Fan, 1983.
11. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari.
12. Апресян Г. Ораторское искусство. М. 1978.
13. Головин Б.Н. Основы культуры речи. – М.: Высшая школа, 1989.
14. R.Qo'ng'urov, S. Karimov. "O'zbek tili stilistikasi va nutq madaniyati: Bibliografik ko'rsatkich" – SamDU, 1984.
15. Begmatov E. Nutq madaniyati tushunchasi haqida.O'zbek tili va adabiyoti.1975.№ 5.

## MADANIYAT



## 2-ILOVA O'QITUVCHI NUTQI MADANIYATI FANINING VAZIFALARI



## 3-ILOVA

## NUTQ MADANIYATI VA BOSHQA FANLAR

### • NUTQ MADANIYATI

### • TILSHUNOSLIK

### • PEDAGOGIKA

### • ADABIYOTSHUNOSLIK

### • SAN'ATSHUNOSLIK

### • TARIX

### • FALSAFA

### • PSIXOLOGIYA


### • VA BOSHQALAR ...

#### NOTIQLIK SAN'ATI TARIXI


4-ILOVA



5-ILOVA



6-ILOVA



## QADIMGI SHARQ NOTIQLARI


7-ILOVA



## QADIMGI SHARQ VOIZLARI

8-ILOVA

QADIMGI SHARQ VOIZLARI



10-ILOVA

OZBEK TILI MEYURLARI<sup>1</sup>


O'ZBEK TILI  
ME'YORLARI

O'ZBEKTILINING  
DIAXRON –  
TARIXIY  
ME'YORI


O'ZBEKTILINING  
SINXRON –  
ZAMONAVIY  
ME'YORI

9-ILOVA


UYG'ONISH DAVRI NOTIQLARI



## 11-ILOVA



## NOTIQLIK SAN'ATINING TURLARI




13-ILOVA

<i>Notiqlik turlari</i>	<i>Nutq ko'rinishlari</i>
<b>I. SIYOSIY-IJTIMOIY NOTIQLIK</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>➤ <i>Siyosiy-ijskoiy va siyosiy-iqtisodiy mavzudagi ma'ruzalar.</i></li> <li>➤ <i>Anjumanlardagi hisobot ma'ruzalari.</i></li> <li>➤ <i>Siyosiy nutq.</i></li> <li>➤ <i>Diplomatik nutq.</i></li> <li>➤ <i>Siyosiy axborot.</i></li> <li>➤ <i>Harbiy vatanparvarlik nutqi.</i></li> <li>➤ <i>Tashviqotchi nutqi.</i></li> <li>➤ <i>Ilmiy-ommabop nutq.</i></li> </ul>
<b>II. AKADEMİK NOTIQLIK</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>➤ <i>O'quv yurtlari ma'ruzalari.</i></li> <li>➤ <i>Ilmiy ma'ruza.</i></li> <li>➤ <i>Ilmiy axborot.</i></li> </ul>
<b>III. SUD NOTIQLIGI</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>➤ <i>Qoralovchi nutqi.</i></li> <li>➤ <i>Jamoatchi qoralovchi nutqi.</i></li> <li>➤ <i>Oqlovchi nutqi.</i></li> <li>➤ <i>Jamoatchi-oqlovchi nutqi.</i></li> <li>➤ <i>O'z-o'zini himoya qilish nutqi.</i></li> </ul>
<b>IV. IJTIMOIY-MAISHIY NOTIQLIK</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>➤ <i>nutqlari)</i> <i>Madhiya (yubiley, maqtov</i></li> <li>➤ <i>Ta'ziya (motam) nutqi.</i></li> <li>➤ <i>Tabrik nutqi.</i></li> </ul>
<b>V. DINIY NOTIQLIK</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>➤ <i>Xutba.</i></li> <li>➤ <i>Va'z.</i></li> </ul>


14-ILOVA

NUTQNING ASOSIY KOMMUNIKATIV SIFATLARI




## 15-ILOVA

### NUTQNING ASOSIY KOMMUNIKATIV SIFATLARI




## 16-ILOVA

### NUTQNING ASOSIY KOMMUNIKATIV SIFATLARI



## 17-ILOVA

## NUTQNING ASOSIY KOMMUNIKATIV SIFATLARI



## NUTQ TAYYORLASH BOSQICHLARI

### NUTQ TAYYORLASH BOSQICHLARI


1-BOSQICH

2-BOSQICH

3-BOSQICH

ICHKI  
TAYYORGARLIKNUTQNI O'ZI UCHUN  
SO'ZLASHTIGLOVCHILAR  
OLDIDA NUTQ  
SO'ZLASH

## NUTQ MATNLARI



## MUNDARIJA

Kirish.....	3
O'qituvchi nutq madaniyati kursining maqsad va vazifalari.....	5
Nutq madaniyati va notiqlik san'ati tarixidan .....	10
Adabiy norma va nutq madaniyati .....	21
Notiqlik turlari va nutq ko'rinishlari .....	26
Nutq madaniyati – ko'p qirrali tushuncha. Nutqning kommunikativ sifatlari.....	34
Savol va topshiriqlar.....	41
Oraliq nazorat uchun test savillari.....	43
Yakuniy nazorat uchun savol variantlari .....	52
Tayanch tushunchalar.....	54
Adabiyotlar .....	56
Ilovalar .....	57

Texnik muharrir:

**Mirolim ZARIFOV**

Kompyuter verstkasi:

**Dilfuza ORIFJONOVA**

Ushbu o‘quv-uslubiy qo‘llanma Toshkent davlat sharqshunoslik institutining O‘quv-uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan. (Bayonnomma № 1. 13.11.2009)

Bosishga ruxsat etildi 05.12.2009.

Bichimi 60x84 1/16 Shartli 4,75 b.t. 50 nusxada bosildi.

Buyurtma № 25